

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**Z.M.BOBUR NOMIDAGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

TARIX FAKUL'TETI

O'ZBEKISTON TARIXI KAFEDRASI

BITIRUVCHISI

AKBAROVA BAXRINSONING

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**MAVZU: IZBOSKANLIK QATAG'ON QURBONLARI
(RAHIMBERDIEV IBROHIM, HAYDAROV ChIRMASh,
YO'LDAShEV SOXIBQIRON, ISMATOV ABDULLA,
ABDULLAEV UBAYDULLA) NING TAQDIRI**

Ilmy rahbar:

**tarix fanlari nomzodi, dotsetn
Q.Nasriddinov**

ANDILON– 2011

MUNDARIJA

KIRISH (Mavzu tarixshunosligi, manbashunosligi, dolzarbligi).....	3-14
1. Izboskan tumanida kollektivlashtirish, quloqqa tortish va uning oqibatlari.....	15-22
2. “Katta terror” qurbonlarining xayot yo‘li va taqdiri.....	23-34
3. Qatag‘on qurbonlarining hozirgi avlodlari.....	35-38
XULOSA.....	39-41
ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI.....	42-43
ILOVALAR.....	1-7

KIRISH.

Buyuk istiqlool sharofati bilan tariximizga, jumladan 130 yildan ziyod davom etgan mustamlakachilik yillaridagi vatan tarixini holisona o'rganish uchun qulay sharoitlar yaratildi, sovetlar davrida taqiqlangan manbalar, turli arxivlarda saqlanayotgan muxim hujjatlardan foydalanish va shu asosda xalqimizning haqqoniy, chin tarixini yaratish imkoniyati tug'ildi.

Mavzuning dolzarbliqi Prezidentimiz I.A.Karimovning 1996 yil 18 –sentabrda O'zbekiston Respublikasi prezidenti huzuridagi davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi qoshida “O'zbekistonning yangi tarixi markazini tashkil etish to'g'risi”dagi farmoyishi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar maxkamasining 1996-yil 19-dekabrda “O'zbekistonning yangi tarixi yaratish to'g'risida”gi qarori muhim dasturul amal ahamiyatga ega bo'ldi.¹ 2000-yilda uch jildlik “O'zbekistonning yangi tarixi” yaratildi. Prezident I.A.Karimovning 1999-yil 12-maydagi farmoyishiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-Prezident I.A.Karimovning 1999-yil 12-maydagi farmoyishiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999- yil 22- iyuldagi “Vatan ozodligi yo'lida qurbon bo'lgan fidoiylar xotirasini abadiylashtirish to'grisida”gi qarori katta ahamiyatga egadir. Qarorda mustamlakachilik davrida qatag'on qilingan yurtdoshlarni nomma –nom aniqlash, shaxid bo'lganlarning nomini abadiy saqlash va kelgusi avlodlarga yetkazish vazifasi qo'yildi. Bu borada yurtimizda ma'lum ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda.

“Qatag'on qurbonlari” xotira kitobi yaratilmoqda. Uning to'rt jildi nashrdan chiqdi.² Qishloqdagi dehqonlar ommasiga qarshi sotsialistik genotsid qo'llab, sovet rejimi begunoh o'ziga to'q, tadbirkor, mulkdor dehqonlarni, hunarmandlarni, dindorlarni “quloq” qildi, ularning ko'plarini jismonan yo'q qildi. kollektivlashtirish va uning fojeali oqibatlari butun bo'y-basti bilan yangitdan etilmoqda.

Bu o'rinda Prezidentimiz I.A.Karimov takidlaganidek, sovetlar tuzumi, aniqrog'i sovet rejimi “qattol” zamon taqozosi bilan savetlar davrida birir “qizil askar”, biri “bosmachlari”, biri “quloq”, biri “komissar”, yana biri “mushtumzo'r ” yana qay biri “yo'qsil” deb guruhlariga ajratib tashlandi. Imperialistlar o'z zamonida mazlum millatlarga nisbatan qo'llagan “Bo'lib tashla, hukmronlik qil ” siyosatni sovetlar ham qo'llab o'zbek millati vakillarini bir-biriga qarshi qayrash, adovat va nizo urug'ini sochishni amalga oshirdilar. “shu boisdan,- deb ko'rsatdi I.A.Karimov, -ota –bobolarimizga anashunday ranglar bilan ajrarib baho bermasligimiz, balki ularning hayotini, ular yashagan davr mohiyatini to'g'ri tushuntirishga harakat qilishimiz lozim”¹.

Qo'lga kirilgan milliy istiqlool o'tmishni to'g'ri tahlil qilish, shu asosida, milliy istiqlool mafqurasi ruhida shakllantirish, jamiyatni yanada demoqrarlashtirish va tariximizning hasratli sahifalarini yangitdan yaratish imkoniyatini berdi.

Bugungi kunda ma'naviy, ilmiy sohadagi tub o'zgarishlar yo'lga qo'yilgan islohatlarimiz bosh mezoniga aylanib, taraqqiyot yo'nalishimizni belgilab berdi.

Vatanimiz istiqloolga erishgunga qadar siyosiy qatag'on sovet jamiyatining ajralmas tarkibiy qismi, yoldoshi bo'lib keldi. biroq bu fojea vatanimiz tarixida ayniqsa 30-40 yillardagi tariximizda mutlaqo yoritilmagan edi, bu davr bamisoli ustiga kafan tashlangan, kafanga o'ralgandek holatda, o'rganish uchun yopiq mavzu bo'lib qolgandi. yurtboshimiz hali mustaqillikka erishmasdan avvalroq O'zbekistondagi siyosiy qatag'on va uning qanday kechgani, fojeali oqibatini ochib berish, begunoh qatag'on qurbonlarini oqlash choralari ko'rish tashabbusi bilan chiqdi. Bu o'rinda Islom Karimovning mana bu fikrlari diqqatga loyiqdir: “...1937-1938 yillarda ichki ishlar xalq komissarligi idoralari inqilobiy qonunchilikni juda

¹ “Xalq so'zi”, 1996-yil 19-sentabr, 1996-yil 17-dekabr.

² R. Shamsutdinov Qatag'on qurbonlari (1937-yil 10- avgust 5- noyabr) 2-kitob. –T .Sharq, 2007. 495 b.

¹ I.A.Karimov o'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurmoqdamiz . Turkiston gazetasi muxbirlarining bergan savoliga javoblari , Turkiston gazetasi , 1999 yil, 2- fevral .

qo'pol tarzda buzdilar va oyoq osti qildilar. Bunday bedodlik keyingi yillarda ham, to 50-yillarga qadar davom etdi. sira aybi bo'lmagan, halol odamlar ko'plab qamoqqa olindi va qirib tashlandi.

Stalin shahsiga sig'inish yillari O'zbekiston xalqlari boshiga og'ir kulfatlar soldi. 1937-1938 yillarning o'zidagina O'zbekiston SSR ichki ishlar xalq komissarligining "uchlik"lari tomonidan 41 ming nafardan ko'proq kishi qamaldi. Shulardan 37 ming nafardan ko'prog'i sudlandi, 6 ming 920 kishi otib tashlandi ...

Asossiz qamalik jinoiy javobgarlikka tortilgan kishilar orasida partiya, sovet, xo'jalik xodimlari, harbiylar, ziyolilar va kolhozchilar juda ko'p edi".¹

Vatanimiz tarixni yangicha kontsepsiya, yangicha metodologiya asosida yaratish istiqlol yillardagi amalga oshirilishi kerak bo'lgan eng ustuvor vazifalardan biri edi. Ana shu masalaga alohida e'tibor qaratgan I.Karimov jumladan: "Nazarimda ozbek xalqining tarixiy o'tmishi, o'zligi, ma'naviyati haqida gapirayotganda, bizda chuqur ilmiy asosga tayangan tahlil muayyan masalalarda aniq yondashuv yetishmayapti. Ilmiy tilda aytganda, yaxlit kontsepsiya yo'q. O'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi. Isbot talab bo'lmagan ushbu haqiqat davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi zarur"², - deb uqtiradi.

Qolaversa madomiki, o'z tarixini bilgan, undan ruhiy kuch oladigan xalqni yengib bo'lmas ekan, biz haqqoniy tariximizni tiklashimiz xalqimizni, millatimizni ana shu tarix bilan qurollantirish, yana bir bor qurollantirish zarur, degan fikrlari har qanday tarixchi har qanday yosh avlod uchun dasturulamali bo'lib qoldi. Rossiyaning Toshkentdagi "Nezavisimaya gazeta" muxbiriga berilgan intervyularida "Imperiya davrida bizni ikkinchi darajali odamlar, deb hisoblashgani" alohida takidlagan holda, o'zbek xalqining asrlar mobaynida shakllangan mentaliteti o'zgacha ekanligiga diqqat-e'tiborini qaratdi.³ Zero, tarixi ming yilliklarga borib taqaladigan o'zbek xalqining ma'naviyati yuksak, etiqodi baquvvat, buyuk insoniy fazilatlar va vatanparvarlik tuyg'ularining cheki, chegarasi yo'q.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov "Yuksak manaviyat – yengilmas kuch" asarida O'zbekiston o'zining ko'p asrlik tarixi davomida ko'plab mash'um xatarlarni necha bor ko'rgani, ularning jabru jafosini tortganini ta'kidlab : "shunday asoratlar tufayli xalqimizning tili, dini va manaviyatining bir paytlar qanday xavf ostida qolganini barchamiz yaxshi. Anashu fojeali o'tmish, bosib o'tgan mashaqqatli yo'limiz barchamizga saboq bo'lishi, bugungi voqelikni teran tahlil qilib, mavjud tahlillarga nisbatan doimo ogoh bo'lib yashashga da'vat etishi lozim. O'z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo'q. Bu haqiqat kishilik tarixida ko'p bora o'z isbotini topgan."¹

"Har qaysi xalq- deb yozadi Islom Karimov,- milliy qadriyatlarini o'z maqsad – muddaolari, shu bilan birga, umum bashariy taraqqiyot yutuqlari asosida rivojlantirib, manaviy dunyosini yuksaltirib borishga intilar ekan, bu borada tarixiy xotira masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Ya'ni tarixiy xotira tuyg'usi to'laqonli ravishda tiklangan xalq, bosib o'tgan yo'l o'zining barcha muvaffaqiyat va zafarlari, yo'qotish"².

1999 yil 12 mayda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mustamlakachilik davri qurbonlari hotirasini abadiylashtirish jamoatchilik komissiyasini tuzish haqidagi farmoyishi e'lon qilindi. Bu farmoyishga ko'ra, 22 iyunda "Vatan va xalq ozodligi yo'lida qurbon bo'lgan fidoyilar hotirasini abadiylashtirish to'g'risida"gi Vazirlar Mahkamasi qarori e'lon qilindi va unda Yunusobod tumanidagi Bo'zsuv qirg'og'ida mustamlakachilik davri qurbonlari hotira majmuini barpo etish, shuningdek, "Shahidlar hotirasi" hayriya jamg'armasi tuzish, qatag'on etilgan fidoyi vatandoshlarimizni nomma-nom aniqlash, ko'p jildlik "Qatag'on qurbonlari" hotira kitobini yaratish, shahid ketganlarning hayot yo'li, ilmiy- ijodiy merosini keng

¹ "O'zbekiston ovozi", 1991 yil 15-sentabr.

² I.A.Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – T.: Sharq, 1998. 5-bet.

³ I.A. Karimov. "Imperiya davrida bizni ikkinchi darajali odamlar, deb hisoblashar edi".

¹ I.A.Karimov. Yuksak manaviyat -yengilmas kuch. - T.: manaviyat, 2008. 4-bet.

² "Xalq so'zi", 2005yil, 19-yanvar

jamoatchilikka etkazish kabi qator hayrli vazifalar belgilab beradi.

1999 yil 21 avgustda “Shahidlar hotirasi” hayriya jamg’armasi tashkil topdi. 2000- yilning 12- mayida poytaxtning Yunisobot tumanidagi Bo’zsuv sohillarida bunyod etilgan “Shahidlar xotirasi ” yodgorlik majmuasining ochilish marosimi bo’lib o’tdi. Unda O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov qatnashdi va nutq so’zladi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001 yil 1 maydagi “Qatag’on qurbonlarini yod etishkunini belgilash to’risida”gi Farmonida ko’rsatilishicha, 2001 yildan boshlab har yili Mustaqillik e’lon qilingan kun – 31 avgustda O’zbekistonda qatag’on qurbonlarini yod etish kuni nishonlanadigan boldi. Mazkur Farmonga muvofiq, 2002 yil 31 avgustda Bo’zsuv bo’yida “Qatag’on qurbonlari hotirasi” muzeyi ochildi.

Mavzuning manbashunosligi: Mamlakatimizda so’nggi yillarda qatag’on qilingan yurtdoshlarimiz faoliyati, ularning fojiali qismatini yorituvchi ko’plab tadqiqotlar yaratildi. Bu tadqiqotlarni yaratishda bir qator tarixchi, adabiyotshunos, faylasuf olimlarimiz katta hissa qo’shishdi. Hususan, bu sohada O’zbekistonda hizmat ko’rsatgan ma’daniyat hodimi, Andijon davlat universiteti professori, mashhur tarixchi olim **Rustambek Shamsutdinov** tadqiqotlari muhim o’rin egallaydi.**R. Shamsutdinov** so’nggi 15 yilda yaratgan 20 dan ortiq kitoblarida O’zbekiston tarixining ushbu fojiali sahifalarini yoritgan. Ayniqsa, olimning “Qishloq fojeasi: jamoalashtirish, quloqlashtirish, surgun” (Toshkent, Shark, 2003) monografiyasida XX asr o’zbek qishlog’ining fojeasi, O’rta Osiyo respublikalarida bolsheviklar tomonidan amalgam oshirilgan quloqlashtirish va kollektivlashtirish siyosatining dahshatli manzarasi ko’rsatilgan.

Professor **R. Shamsutdinov** boshchiligidagi bir guruh tarixchi olimlar (E.Yusupov, A. Mamajonov, E. Do’smatov, M. Abdullaev, H. Qurbonov) “Meros” halqaro ekspeditsiyasi va “Shahidlar hotirasi” hayriya jamg’armasi bilan hamkorlikda 2005 – 2008 yillarda “Sharq” aksiyadorlik kompaniyasida **“Repressiya 1937-1938 gg”** deb nomlangan to’rt kitobdan iborat hujjatlar va materiallar to’plamlarini chop etishdi. Birinchi, uchinchi va to’rtinchi kitoblardagi hujjatlar rus tilida, farat ikkinchi va beshinchi kitob o’zbek tilida nashr qilingan.

Ushbu kitoblarga kiritilgan hujjatlarning aksariyati 1937 yilga oid bo’lib, bu to’plamlarga O’zbekiston Respublikasida hizmat ko’rsatgan fan arbobi, taniqli adabiyotshunos olim, professor Naim Karimov mas’ul muharrirlik qilgan shuni alohida takidlash joizki kitoblarga kiritilgan qatag’on mavzuidagi hujjatlar arxiv materiallari bo’lib, ular ilk marta e’lon qilinmoqda.

Birinchi kitob (**Repressiya. 1937-1938 gg dokumenty i materialy Vypusk 1.**) kirish va beshta qismdan iborat bo’lib, kitobdagi hujjatlarni nashrga tayyorlagan olimlarimiz N.Karimov, R.Shamsutdinov, E. Yusupov kitobga yozgan kirish so’zlarida ushbu to’plamga kiritilgan materiallarning mazmun- mundariyasi xaqida fikr yuritishgan. Kitobga kiritilgan arxiv xujjatlari 1993-2000 yillar mobaynida O’zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati arxivi, O’zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi, Rossiya Federatsiyasi Federal xizmat byurosi markaziy arxivi, Rossiyaning ijtimoiy-siyosiy tarixi davlat arxivi, Andijon, Farg’ona, shuningdek, Ukrainadagi Xerson, Nikolaev viloyatlarining turli arxivlari fondlaridagi materiallardan olingan. Bundan tashqari Moskvada chop etilgan ba’zi to’plamlardagi ayrim hujjatlar ham tanlab kiritilgan.

Kitobning birinchi qismidagi materiallar SSSR va O’zbekiston SSR Ichki ishlar xalq komissarligi (NKVD) markaziy aparati raxbariyati xususida bo’lib, unda harkomlar (xalq komissarlari), ularning o’rin bosarlari, SSSR NKVD kollegiyasi, SSSR va O’zbekiston SSR dagi davlat xavfsizligi boshqarmalari va viloyat raxbarlari xaqida bo’lib, bu muxum ma’lumotlar tadqiqotchilar uchun vatanimizning mazkur davr tarixini yoritishda asqotadi.

Kitobning ikkinchi qismidan joy olgan materiallarda sovet davlati repressiya (qatag’on) siyosatining asosini tashkil qiluvchi xujjatlarga katta etibor qaratilgan. Sovet davlati va bolsheviklar partiyasining raxbarlari tomonidan 1937- 1938 yillarda qabul qilingan turli qarorlar ko’rsatmalar, joylardagi mahalliy rahbarlarga yuborilgan turli telegrammalar va xatlar xamda respublika raxbarlarining markazga yo’llagan ko’plab malumotnomalari, xisobotlari va axborotlarida bu jarayon ochib berilgan.

Kitobning uchinchi qismidan joy olgan xujjatlarda repressiv organlarning qo’shimcha

ishlari, qatag'on qilingan fuqarolarning qamoqqa olinish jarayoni, maxbuslarning anketasi, tergov protokollari, ayblov xulosi, xukm qilingan maxbuslarning arizalari va xayrlashuv maktublari, ularning o'limi va tirik qolganlarning tutqunlikdagi xayoti ko'satilgan bo'lib, ushbu arxiv materiallari bugungi kunda ham o'zining keskin ruxi bilan o'quvchi qalbini larzaga soladi.

Kitobning to'rtinchi qismida materiallarda SSSR Oliy sudining xarbiy kollegiyasi sudi tomonidan O'zbekiston SSRda javobgarlikka tortilgan mas'ul xodimlar (1-kategoriya bo'yicha - 155' 2- kategoriya bo'yicha -10, jami- 165 kishi) ro'yxati hamda respublikamizdan qatag'on qilingan 220 nafar davlat, siyosiy va jamoat arboblarning qisqacha tarjimai xollari keltirilgan.

Kitobning oxirgi beshinchi bo'limidan esa GULAG (Lagerlar bosh boshqarmasi) xaritasi joy olgan bo'lib, unda unda SSSR da 1923-1961 yillarda mavjud bo'lgan qamoqxonalarning xolati tasvirlangan. Toshkentda joylashgan o'rta osiyo axloq tuzatish mehnat lageri (1930-1943 yillarda mavjud bo'lgan) xaqida ham ushbu bo'limda ma'lumotlar keltiriladi.

"Qatag'on qurbonlari" (Toshkent, Sharq, 2005) deb nomlangan o'zbek tilidagi ikkinchi kitobda 1937 yil 10 avgust -5 noyabrda bo'lib o'tgan O'zbekiston SSR ichki ishlar xalq komissarligi xuzuridagi uchlik (troyka) yig'ilishlarining protokollari keltirilgan. "Qatag'on daxshatlari" deb nomlangan birinchi bob kitobning o'ziga xos so'z boshisi bo'lib, unda sovet rejimi 1937-1939 yillarda respublikamizda amalgam oshirilgan qatag'on siyosatining butun daxshatlari ochib berilgan.

Kitobning asosiy qismini "Uchlikning muxim hukmlari" deb nomlangan ikkinchi bob tashkil qiladi. Unda mudxish uchlik hukmi bilan qatag'on qilingan 3083 nafar maxbuslar xaqida ma'lumotlar keltirilgan. Ma'lumotlar O'zSSR NKVD huzuridagi Troyka (uchlik) ning 1937 yilning 10, 20, 29 avgustdagi, 8, 12, 13, 15, 24, 26, 29 sentyabrdagi, 1, 14, 19, 25, 28 oktyabrdagi, 3, 5 noyabrdagi, 1-32-protokollarning bayonnomalaridan olingan. Bayonnomalar deyarli o'zgartirilmagan xolda rus tilidan o'zbek tiliga aynan tarjima qilingan. Ushbu xujjatlar O'zbekiston Respublikasi milliy xavfsizligi xizmati arxividan olingan. Kitobda keltirilgan bayonnomalar va hukm qarorlarida maxbuslarga qo'yilgan ayblarga nisbatan tanqidiy munosabatda bo'lish lozim "Xalq dushmani", "Millatchi", "Aksil inqilobchi", "Bosmach", "Josus", "Sotqin", "Quloq", "Burjuvon malayi" kabi turli yorliqlar yopishtirilgan bu vatandoshlarimizning aksariyati millatning fidoiy o'g'lonlari, ziyolilari, davlat, jamoat, fan va madaniyat arboblari edilar. Ular O'zbek xalqi siyosiy elitasining gullari bo'lgan. Shu bois shu kitoblarda keltirilgan xujjatlardagi qatag'on qurbonlariga qo'yilgan turli ayb va jinoyatlarning aksariyati NKVD yer to'lalarida chekistlar tomonidan o'ylab topilgan soxta aybnomalardir. 1936-1938 yillarda Sovet Ittifoqi shuningdek, O'zbekiston SSRda katta terrorni amalga oshirgan qatag'on organlarining rahbarlari va oddiy ijrochilarning ko'pchiligi, hatto mudxish troyka a'zolari ham qatag'on qurboni bo'lgan.

O'zbekiston SSR bo'yicha uchlik dastlab 1937 yil yozida N.A Zagvozdin (O'zbekiston SSR Ichki ishlar xalq komissari), A.Karimov (O'zbekiston Kom-partiyasi) J. To'rabekov (O'zbekiston SSR Xalq Komissarlari Soveti raisining o'rinbosari) kabi mas'ul shaxslardan iborat qilib tasdiqlangan. Uning yig'ilishlarida O'zbekiston SSR prokurori Sheyndlin, kotib sifatida esa O'zbekiston SSR NKVD Davlat xavfsizlik boshqarmasi 8 bo'lim boshlig'i letinant Yakovlev ishtirok etgan. Keyinchalik O'zbekiston SSRdagi uchlik tarkibiga N.Zagvozdin (Rais), U.Yusupov, Sheyndlin (1937 yil 1 aktyabrdan), D.Z. Apresyan (Rais), U. Yusupov, S.Segzboev (1937 yil 13 noyabrdan) kirgan.

Uchlik o'z ishini tegishli NKVD va uning boshqarma hamda bo'limlari joylashgan punktlarda olib borgan yoki operativ sektorlar joylashgan yerga borib ish ko'rgan. Uchlik unga taqdim etilgan xar bir maxbus yoki maxbuslar guruxi, shuningdek, surgun qiliniyotgan xar bir oila to'g'risidagi materiallarni ko'rib chiqqan.

Xukm ijro etilganligi xaqidagi uchlikning bayonnomalari zudlik bilan SSSR ichki ishlar xalq komissarligi davlat xavfsizligi bosh boshqarmasining 8 bo'limiga yuborilgan. Unga birinchi forma bo'yicha xisob kartochkalari ilova qilingan. Bu xaqda "Qatag'on qurbonlari" kitobida xujjatlar tili bilan batafsil xikoya qitilgan. Xukm ijrosi uchlik raisi ko'rsatmasi bilan amalga oshirilgan. Xukmni ijro etish uchun uchlik yig'ilishi bayonnomasidagi qaror asos bo'lgan.

Birinchi toifa bo'yicha xukmlar ijrosi respublika xalq komissari, NKVD boshqarmasi, bo'lim boshliqlari ko'rsatmasi bilan vaqti va joyi yashirin xolatda bajarilgan. Xukmning ijrosi xaqidagi xujjatlar xar bir xukm etilganing tergov ishiga aloxida konvertida solib qo'yilgan. Ikkinchi toifa bo'yicha xukm qilinganlar SSR NKVD Davlat lagerlar boshqarmasi (GULAG) belgilagan naryadlar asosida amalga oshirilgan.

“Repressiya. 1937-1938 gg”.(Tashkent, Sharq, 2007) deb nomlangan uchinchi kitobdagi xujjatlar va materiallar 1937 yil noyabr oyiga tegishli bo'lib, unda O'zbekiston SSR NKVD xuzuridagi Troyka (uchlik) ning 33-37-43 majlislarining protakollari (bayonnomalari) mavjud. Bu xujjatlar ham O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati arxividan olingan. Kitobga kiritilgan atiga oltita bayonnoma matnidan shuni aniqlab olish mumkinki, 1937 yil noyabr oyida O'zbekistonda sovet rejimining qatag'on siyosati o'zinig yuqori cho'qqisiga chiqqan. Bir oy ichida minglab begunoh vatandoshlarimiz qatag'on qilichi qinidan qurbon bo'lishgan. Kitobga kiritilgan xujatlarda ko'rsatilishicha, qatag'on qilinib, axloq tuzatish mahnat lagerlari va kalonnalarida qamoq jazosini o'tayotganlar juda ham yomon xolatda va achinarli axvolda kun kechirishgan. Ularning aksariyati turli kasalliklardan, ochlik va tashnalikdan, izg'irin sovuqdan, zulm va qiynoqlardan o'lib ketishgan, tirik qolganlari esa bir umr nogiron bo'lib qolgan. GULAG lagerlaridagi maxbuslar orasida o'lim xolati yuqori darajada bo'lgan. Ayniqsa, 1937-1938 yillarda va ikkinchi jaxon urushi davrida mahbuslarning o'limi ko'p qayd etilgan. Bazi ma'lumotlarga qaraganda, 1937 yili GULAG lagerlarida 908634 nafar mahbus bo'lib ulardan 25375 nafari o'lib ketgan.

1938 yilda esa 1156781 nafar mahbusdan 90546 nafari vafot etgan. Ular orasida o'zbekistonliklar va o'zbeklar soni ancha ko'p bo'lgan.

Katta terror avjiga chiqqan 1937 yil1 oktyabrdagi ma'lumotlarga ko'ra SSSR Ichki ishlar xalq komissalarining lagerlari bo'yicha 20954 o'zbek mahbusi bo'lgan. Ularning 2643 nafari Baykal –Amir lagerida, 1923 nafari Volga –Mockva qurilishi(Dmitrov lageri) da1554 nafari Uglich –Ryabinskukurilishi (Volga lageri)da 1673 nafari oq dengiz –Boltiqlagerida , 687 nafari Novosibirsk lagerida, 3029 nafari Toshkentdagi o'rta osiyo lagerida qamoq jazosini o'tagan. Mahkumlar o'ta og'ir sharoitlarda tinimsiz ravishda mehnat qilib, “Komunistik jamiyat” asosini qurganlar. Shuningdek, o'zbekistonlik 3275 nafar ozbek maxbuslaridan 854 nafari Qarag'anda, 12 nafari Prorva, 23 nafari Norilsk, 1199 nafari Vyazemsk, 69 nafari Kaluga 250 nafari Stalin temir yo'l bekati, 96 nafari janubiy –sharqiy lagerlar, 47 nafari Podolsk aerodromi, 70 nafari Samara , 655 nafari shimoliy –sharqiy lagerlardagi qamoqxonalarda jazo o'taganlar “Repressiya” 3-kitobida ana shunday malumotlar keltiriladi.

1939-yil 1-yanvarga oid malumotlarga qaraganda, NKVD axloq tuzatish mehnat lagerlaridagi tutqunlik orasida 23855 nafar o'zbeklar bo'lgan. Bu maxbuslar aksar xollarda josuslik, terrorchilik, qo'poruvchilik, Vatanga xiyonat qilish, trotskiychi- zinoviyevchilik va Vatan xoini oilasi azosi bo'lishlikda ayblanganlar. Ular SSSR OGPU-NKVD organlari, jumladan,NKVD maxsus kengashi va troykalari, Adliya xalq komissarliklari kollegiyalari tomonidan hukm qilinganlar.

“Repressiya. 1937- 1938 gg”(Toshkent,sharq 2008.) deb nomlangan 4- kitobdagi xujjatlar va materiallar 1937 yil dekabr oyiga oid bo'lib, unda katta terrorning O'zbekistondagi qurbonlari xususida so'z boradi. Ushbu to'plamdan O'zSSR NKVD xuzuridagi troykaning 1937 yil 1-27 dekabrdagi 44-65 majlislarining protokollari o'rin olgan bo'lib,,bu hujjatlar ham O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati arxividan olingan. Xullas, repressiya xaqidagi hujjatlar kiritilgan 4-kitobdagi 22 ta protokollarda respublikamizda ma'muriy organlar tomonidan faqat 1oy 1937 yil dekabrda amalgam oshirilgan mudhish xunrezliklar o'z aksini topgan.

Faqat 1937 yil12 dekabr kunining o'zida uchlikmajlislarida 625 ta jinoiy ish ko'rilgan. Sakkiz kun mobaynida esa 3082 ta jinoiy ish ustidan xukm o'qilgan.

1937-yil dekabr oyida qatag'on qilinganlarning katta qismi Andijon va Buxoro okruglari xissasiga to'g'ri keladi. Bu paytda Andijon okrugida 51 nafar mahbus otuv jazosiga xukm qilingan, 463 nafar mahbus 10yil muddatga ozodlikdan maxrum qilingan, 108 nafar maxbus esa 8 yil muddatga qamalgan, 1 nafar mahbus ozod etilgan bo'lsa, Buxoro okrugida 121 nafar

maxbus otuv jazosiga hukm qilingan, 242 nafar maxbus 10 yil muddatga va 48 nafar maxbus 8 yil muddatga ozodlikdan maxrum etilgan. 1937 yil 10 dekabrda bo'lgan O'zSSR NKVD Buxoro sektori troykasining yig'ilishida (62-protokol) 170 nafar maxbusning jinoiy ishi ko'rilgan. Ularning bir qismi otib tashlangan qolganlari 8-10 yil muddatga qamoqqa hukm qilingan.

4 - kitob oxiriga kiritilgan ilovada 1937yil dekabrda O'zbekiston SSRda qatag'on qilingan kishilarning miqdori, ularning milliy va ijtimoiy tarkibi, respublikamiz okruglari, tumanlari, shaxarlari bo'yicha qatag'on qilinganlar soni kabi malumotlar keltirilgan. Bu ilova qatag'on davri tarixini o'rganuvchi yosh tadqiqotchilar uchun bebaxo manba vazifasini o'taydi.¹

2001 yil 1 maydagi Farmoni asosida Toshkent shahrida qatag'on qurbonlarini nomma-nom aniqlash, nomini abadiylashtirish maqsadida "Shahidlar xotirasi" xayriya jamg'armasi tashkil etildi. Shuningdek Yunusobot tumani Bo'zsuv qirg'og'ida "Shahidlar xotirasi" ziyoratgohi hamda "Qatag'on qurbonlari xotirasi" muzeyi faoliyatini boshladi.

2001 yilda Andijon shahrida O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, tarix fanlari doktori, professor R.T.Shamsutdinov rahbarligida faoliyatini boshlagan "Meros" xalqaro ilmiy-amaliy ekspeditsiya xayriya jamg'armasi ham o'zining maqsad va vazifalariga ko'ra sovetlar davrida amalga oshirilgan kollektivlashtirish, quloqlashtirish, surgun va ayniqsa, 1937-1938 yillarda qatag'on qilinganlarni nomma-nom aniqlash, ilmiy ekspeditsiyalar uyushtirish hamda to'plangan manba vaarxiv hujjatlarini kitob holida chop etish bilan shug'ullanmoqda. Prof. R.Shamsutdinov rahbarligidagi bir guruh olimlar hammuallifligida yaratilgan ko'p jildli "Qatag'on qurbonlari" (Repressiya)² kitoblari aynan 1937-1938 yillarda qatag'on qilingan yurtdoshlar qismatiga bag'ishlangan. Ushbu kitoblar o'zida 12 mingdan ortiq qatag'on qurbonlari haqidagi ma'lumotlarni jamlagan.

Men tadqiq qilayotgan ushbu Bitiruv malakaviy ishimda ham aynan mana shu kitoblarda nomlari keltirilgan **Rahimberdiev Ibrohim, Haydarov Chirmash, Yo'ldashev Soxibqiron, Ismatov Abdulla, Abdullaev Ubaydullalarning** qismati tadqiq etiladi.

Ushbu ish kirish, 3 paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilova qismlaridan iborat.

¹ Qatag'on jarayonlari haqida to'rt kitob // jahon adabiyoti . 2008. 12-son

² Шамсутдинов Рустамбек. Катагон қурбонлари. (1937 йил 10 август-5ноябрь). Иккинчи китоб. –Т.: Шарқ, 2007. –495 б.; "Репрессия" 1937-1938гг. Документы и материалы. Выпуск 3. Жертвы Большого террора из Узбекистана. 1937 год, ноябрь. Сост: Шамсутдинов Р.Т., Юсупов Э., Мамажонов А, Дўсматов Э. –Т.: Шарқ, 2007. –495 с.; "Репрессия" 1937-1938гг. Документы и материалы. Выпуск 4. Жертвы Большого террора из Узбекистана. 1937 год, декабрь. Сост: Шамсутдинов Р.Т., Абдуллаев М., Дўсматов Э.П., Курбанов Х.Р. –Т.: Шарқ, 2008. –573 с; Катагон қурбонлари. 1938 йил феврал, сентябрь. Бешинчи китоб. Тузувчилар: Шамсутдинов Р.Т., Қурбонов Х.Р., Расулов Ж.М., Эгамбердиев Ф., Бекимметов У. – Тошкент: Шарқ, 2009; Катагон қурбонлари. Хотира (Бухоро) вилояти. Бухоро, 2009. – Б. 160

1. Izbosgan tumanida kollektivlashtirish, quloqqa tortish va uning oqibatlari.

“Aslida SSSR — sovetlar shaklidagi»ishchi-dehqon deputatlari sovetining ishchi-dehqon hokimiyati» deb e'lon qilingan edi. Shunga binoan avvalgi Markaziy Ijroiya Qo'mita (MIK) SSSRning Oliy Organi deb e'lon qilinadi (1932 yildan SSSR Oliy soveti). Il-garigi uezd, volost tizimlarida yakka hokimlik (uezd boshlig'i, vo-lostda volostnoy) hukmron edi. Endi yangi qonun tartibiga binoan respublika boshqaruv organlarida ham yangi rayonlashtirish o'tkazilib, 1926 yil sentyabr oyida O'zbekiston yangidan rayonlarga bo'lin-di va yangi Izboskan tumani tashkil qilindi. Tuman esa,-qishloq sovetlariga (xalq og'zida»selsovet») bo'lindi. Tuman markazi deb Chuvama qishlog'i belgilandi. Avvaliga hozirgi Paxtaobod tumani va Qirg'izistonga qarashli Xijirobod (hozirgi Seydiquim) va No'shkan qishloqlari ham»selsovetlar» tarzida Izboskanga tobe qilingan edi (1936 yili Qirg'iziston respublikasi tashkil qilinib, keyingi ikkita qishloq ushbu respublikaga o'tkazildi).

1927 yil mart oyida O'zbekiston Sovetlarining II qurultoyida respublikaning birinchi konstitutsiyasi qabul qilinib, yangi»Ishchi-dehqon hukumati» e'lon qilinadi. Konstitutsiyaga binoan»mehnatkash bo'lmagan» ijtimoiy tabaqalar, shuningdek, dindor mulla ulamolar saylov huquqlaridan mahrum qilinadi (xalq og'zida»Sho'roga haqsiz»).

Ilgarigi — 1925 yil 2 dekabrda O'zbekiston SSR MIKning favqulodda sessiyasi chaqirilib»Er va suvni natsionalizatsiya qilish (ya'ni davlat tasarrufiga olish) to'g'risida» maxsus dekret qabul qilingan va yer-suv islohoti o'tkazish to'g'risida ham qaror e'lon qilingan edi. Unda ko'rsatilishicha, Farg'ona viloyatida 40 desyatinadan ortiq sug'oriladigan yeri bor xo'jaliklarning yer-suv-lari musodara qilinishi va 40 desyatinagacha yeri bor mulkdorlar-ning yeri 7 desyatinadan ortig'i qisqartirilishi lozim.”¹

“Izboskan tuman Davlat arxivida»bosmachii» deb nomlanib qol-gan ozodlik harakatlarida qatnashib, tor-mor etilgan qismlarning sobiq a'zolari ro'yxati saqlangan. Ular tuman NKVD si yoki pro-kuraturasi fondlarida keltirilgan. Ushbu ro'yxatlar maxfiy tarz-da tuzilib, sovet organlariga ro'yxatga tushganlarni tutib qamash va»quloq» sifatida yo'q qilish, oilalarini ko'chirib yuborish va-zifasi yuklatilgan.

O'zbekiston milliy davlat arxivi (O'z.MDA)ning 838-fondida Farg'ona viloyatining ayrim tumanlaridan quloq qilingan xo'ja-liklar soni aniq yozib qo'yilgan. Unda ko'rsatilishicha, Izboskan tumanidan 716 ta xo'jalik quloqqa tortilgan (O'sha fond 9-r, 421-ish, 1 varaq).

1932 yil 15 avgust oyida tuzilgan bir maxfiy ro'yxatda sovet-lar hokimiyatiga qarshi qo'lda qurol bilan kurashganlardan 75 ki-shining ismi-familiyasi keltirilgan. Axborotda yozilishicha, ular o'z vaqtida taslim bo'lishgan. Ammo taajjub joyi shundaki, mahal-liy organlarga ularni maxfiy ravishda izlab topib, qamash yoki badarg'a qilish vazifasi yuklatilgan. Yana bir ro'yxatda tutib badarg'a qilishga mahkum etilganlardan 84 kishining, uchinchi bir ro'yxatda 29 kishining ismi va otasining ismlari keltirilgan.

Bular, o'sha 1917 yili ag'darib tashlangan tuzumning mahv etilgan butun bir sinf vakillaridirki, ularni»sotsialistik tuzum dush-manlari» deb tarixda ayblash mantiqan noto'g'ridir. Ayni vaqtda islom dini ruhoniylari ham kuchli ta'qib ostiga olinadi. Ular mol-mulkidan mahrum qilindilar. Masjid va madrasalar hamma joyda yopilib, omborxonalarga aylantirildi. Barcha mullalar»Sho'roga qarshi unsurlar» hisoblanib, ularning huquqlari chegaralab qo'yildi. O'zlariga «aldamchilar», «tekinxo'rlar» degan tamg'a bosildi.

Arxiv hujjatlaridan birida (Izboskan tuman arxivi, 23-f, 1-r, 4-ish, 1—7-bet) Izboskan hamda Paxtaobod qishloqlari bo'yicha 37 ta islomiy olim va mullalarning ro'yxati keltirilgan va kuchli ta'qib ostiga olingan. Ularning ham mol-mulklari tortib olin-gan, o'zlari shaharlardan chekka qishloqlarga badarg'a qilingan. Ular»sho'roga qarshi unsurlar» hisoblangan. Eng qimmatli ma'naviy boylik hisoblangan barcha ilmiy-islomiy kitoblarni qoplariga solib qabristonlarga ko'mib yashirishga majbur bo'lganlar. 1970 yillari To'rtko'l qishlog'ida

¹ S.Jalilov , A.Komil . Izboskan va Izboskanliklar . Toshkent-“Vktor press”- 2007. 56-bet.

o'tkazilayotgan arxeologik tekshirish-lar chog'ida katta qabristonda arabcha imloda yozilgan ko'plab kitoblar topilganiga o'zimiz guvohmiz.

Keltirilgan ro'yxatdan shu narsa ma'lum bo'lmoqdaki, diniy ulamolarning 1qismi sho'ro hokimiyati zulmidan bezib, mahfiy ravishda Xitoyning Qoshg'ar viloyatiga o'tib ketganlar. Jumladan, O'rtoqlar qishlaoq sovetidan quloqqa tortilib qochib ketgan Mirza Mahmud Mirza Komil o'g'li va uning otasi Mirza Komil yana shu qishloqdan Turdiali Siddiq amin og'li poytug'lik To'xtasin Hakimxo'ja o'g'li, Elatondan fathiddin Saidxo'jaev, Muzapar Boltaboyev kabi o'nlab mulloqlar ro'yxati keltirilib, barcha 37 kishining yoshi ko'rsatilgan va tashqi ko'rinishlari, yuz ko'z tuzilishlari tasvirlangan. Ro'yxat mahfiy ravishda NKVDning barcha chegara organlariga yuborilib, chegaradan o'tayotganlarida qo'lga olinganda darhol tutib qamash buyurilgan.

Mamlakatda "quloqqa tortish" va qishloqlarni jamoalashtirish siyosati boshlanishidan ilgari tarixga mashhur "Hujum" kompaniyasi ham boshlangan edi. Tarixdan malumki, xotin – qizlarimizning xayoti, turmush tarzi azaldan musulmonchilik qonunlari asosida kechgan."¹

"Biz ishimizning zarur joylarida xususiy mulkchilik–insoniyat iqtisodiy taraqqiyotining olg'a qarab harakatlantiruvchi kuch ekaniga e'tiborni qaratgan edik. Sovetlar hokimiyati va bolshe-viklar partiyasi rahbariyati esa yirik agrar jamoa xo'jaligi —»yakka dehqon xo'jaligidan afzal» - degan qat'iy fikrga asoslanib siyosat yurgizdilar. Chunki marksizm»ta'limotiga» ko'ra, dehqon»mayda burjua psixologiyasi» bilan»zaharlangan» emish. Jamoa xo'jaliklari esa dehqonni sotsialistik yo'lga solishni tezlash-tiradi, — asosan-mana shu aqida kolxozlar tashkil qilishda asosiy g'oya bo'lib qoldi. Bu ishda ko'rsatilgan ixtiyoriylik printsipiga ham rioya qilinmadi, balki»yuqoridan belgilash» yo'li bilan amalga oshirildi. Mana shunday kampaniyachilik tarzida Izboskan tuma-nida ham dehqonlarni jamoalashtirish boshlandi, zo'rlik bilan avvaliga mayda-mayda kolxozlar tuzildi. 1927 yili Poytug' markazida dastlabki jamoa xo'jaligi («kolxoz») tuzilib, unga Abdurahmon deganni rais tayinladilar. Xo'jalikning 200 ga yeri, 20 bosh ot, 5 qo'sh xo'kizi bor edi. 150 nafar batrak birlashib, dastlabki yili har^ gektar yerdan 7 sentnerdan paxta hosili olingan xolos («Sovet O'zbekistoni», 1974 y, 9 may soni). Barcha ishlar faqat qo'l kuchi bilan qilinardi.

Jamoa xo'jaliklari tuzishda shunday shoshma-shosharliklarga yo'l qo'yildiki, dastlabiga xususiy qo'y-mollar, mevali bog'lar, hatto uy parrandalari ham jamoa mulkiga aylantirildi. Qishloqlarda»hamma bitta katta ko'rpada yotadi, bitta qishloq bitta dosh qozon-dan ovqatlanadi» — degan vahima gaplar tarqaldi. Ulkan yozuvchi-miz Abdulla Qahhor odamlarning kayfiyatini»Qo'shchinor» roma-nida quyidagicha ta'riflaydi:»erkagu xotin bir ko'rpada yotarmish, traktor cho'chqa yog'i bilan yurarmish, u yerning jirini quritadi, go'ristondan ovoz kelibdi».

Natijada qishloqlarda kolxoz tuzumiga qarshi harakatlar boshlanadi. Uy parrandalari, xususan, kolxozga qoldirmaslik uchun chor-va mollari so'yib yuboriladi, mevali bog'lar o'tinga kesiladi. Bun-day ahvoldan Markaz xabar topib, Stalinning»Yutuqlartsan esan-kirash» nomli maqola bilan chiqishiga sabab bo'ldi¹».

Umuman, jamoalashtirish o'zbek qishloqlarining tarixiy rivojlanish jarayoniga to'sqinlik qildi. Dehqonlar davlat tomonidan asoratga solindi. Kolxozlarga zo'rlik bilan a'zo qilingan dehqonlar asosiy fuqarolik huquqlaridan mahrum qilindilar. Stalin ko'rsatmasi bilan kolxozchilarga qochib ketmasligi uchun pas-port berilmaydigan bo'ldi.

Kolxozlarda barcha ishlar zo'ravonlik bilan amalga oshirildi. Ana shu yillardan boshlab sovet davlat tuzumiga xos bo'lgan ma'muriy-buyruqbozlik, rahbarning zo'ravonlik bilan boshqaruv usuli tarkib topa boshladi. Bunday ahvol uzoq yillar maxfiy saqlangan va endilikda oshkora e'lon qilinayotgan arxiv hujjatlarida ham o'z aksini topgan.

Quyida sobiq O'zbekiston kompartiyasi Markazqo'mi xuzuridagi partiya arxivida saqlanayotgan Izboskan tumani hayotini aks ettiruvchi hujjatlardan namunalar keltiramiz. Bu ma'lumotlar 1931 yildan boshlangan voqealarga tegishli bo'lib, tuman rahbariyatining ish

¹ O'sha kitob.59-60-betlar.

¹ O'sha kitob. 62-bet

uslubini, yuqoridan o'tkazilayotgan siquv-zug'umni, kolxoz hara-kati-yu, quloq qilinganlar kayfiyati, umuman qishloq hayotig'a doir ko'p holatlarni o'zida aks ettiradi (Ma'lumotlar birinchi mual-lif S. Jalilov tomonidan 1973 yili to'plangan).

Arxivning 58-fondida kompartiyaning Izboskan tumani bo'yi-cha ijrochilik byurosi majlisining protokoli saqlangan (9 ro'yxat, delo №467). Majlisda (1933 yil 13 iyul) tumandagi»Paxtachi»,»Baynalmilal»,»Yangi qadam»,»G'ayrat» nomli kolxozlardagi ahvol o'rganilib, qilingan ishlar qattiq tanqid ostiga olingan va»sin-fiy hushyorlik o'ta zaiflashib» ketganiga e'tibor qaratilgan. Lo'g'umbek, Poytug', Urganji qishloqlarida ishyoqmas dangasalar dalaga chiqmay ishdan qochib yurgan emish. Byuro bu ahvolni»quloqlarning kolxozlarga qarshi kurash usullaridan biri deb hisoblaydi (o'sha delo, 1-varaq). Shu bilan birga byuro kolxozlarda quyidagi tash-kiliy ishlarni bajarishga e'tiborni qaratadi: "A — idora oldi-da qora doska tashkil qilinib, dangasalar nomi yozib qo'yilsin. B — maxsus" Ilich kunlari» tashkil qilinib, odamlar orasida tushuntirish ishlari olib borilsin. V — ishyoqmaslar quloqlar ta'sirida qolganligi ko'rsatilsin va 5 kunlik mehnati qirqib tashlansin. Ko'rilgan choralar haqida Markazqo'mga axborot berilsin».

"Afsuski, 1937 yil yozidan mash'um qatag'onlik kampaniyasi bosh-lanib, mamlakat hayotida, xalqimiz taqdirida yana besaranjomlik,»qama-qama» boshlandi. 1937 yili deyarli butun ziyolilarga, eng ko'pchilik rahbarlarga, hatto maktab o'qituvchilarining asosiy qismiga ham»xalq dushmani» degan tamg'a bosilib, uzoq o'lkalarga sur-gun qilishlar, otib tashlashlar boshlandi. Rahbar xodimlarning ko'pchiligi otib tashlandi. Xalqimiz ko'plab shoirlari, adiblari va olimlaridan judo bo'ldi. Bir qo'rqqoq shoirimiz «xoinlar» de-gan she'r yozgan edi, uni kuyga solib maktab o'quvchilariga aytir-ganlari ayrim qariyalarimiz xotirasida saqlangan. Unda jumla-dan, shunday misralar bor edi:

«Yurtimizni chetga sotmoq bo'ldingiz,
La'nat sizga vatanfurush xoinlar».

Akmal Ikromovni sud qilishda boshchilik qilgan Vmshinskiy degan berahm^ zotning nomi o'sha yillari nihoyatda mashhurlashib ketgan edi. O'sha yili 2 iyulda VKP (b) MK siyosiy byurosi Stalin imzosi bilan «Antisovet unsurlar to'g'risida» degan maxsus qaror qabul qilib, butun mamlakatga tarqatildi. Yana qatag'onlik, uzoq o'lkalarga surgun qilishlar boshlandi. Ushbu direktivada 1931 — 1932 yillari»quloq» deb uzoq o'lkalarga surgun qilinganlarning bir qismi muddatini o'tab o'z yurti qishlog'iga qaytib kelgach, go'yo kolxoz-sovxozlarda qo'poruvchilik,»antisovet» ishlari olib bora-yotganlikda ayblandilar. Buyruq shuki, undaylarni maxfiy tarzda ro'yxatga olish, eng ashaddiylarini esa zudlik bilan yana qamoqqa olish kerak.

1937 yil 30 iyulda SSSR Ichki ishlar xalq komissari N. Yejov «Sobiq quloqlar, jinoyatchilar va sovetlarga qarshi boshqa»yot» unsurlarni repressiya qilish haqida» yana buyruq chiqardi. Buyruqqa binoan 5 kun ichida, ya'ni 5 avgustgacha ushbu operatsiya o'tkazilishi kerak edi.

Ushbu buyruqning sovuq shamoli tezda Izboskanga ham yetib keldi. Bu haqdagi ma'lumot ham tuman arxivida saqlanib qolgan. NKVDning tuman bo'limi boshlig'i leytenant Nasriddinov Respublika Ichki ishlar xalq komissarining o'rinbosari Kulinichev topshirig'iga binoan 2 noyabrda shubha ostiga olingan izboskanliklar ro'yxatini tuzib maxfiy ravishda Toshkentga yuboradi. Ular zudlik bilan qamoqqa olingan. Kulinichev 11 noyabrda Nasriddinovga yana 30 kishining ro'yxatini yuborib, ularning»xalq dushman»ligiga doir ma'lumotlar to'plashni va 23 noyabrgacha qamoqqa olishni buyuradi. Izboskan tumanining turli qishloqlaridan bo'lgan bu 30 kishining ro'yxati tuman arxivida saqlanadi.

Ro'yxatning arxivdagi nusxasini to'la keltiramiz:

«O'zbekiston ichki ishlar xalq komissarligi tuman bo'limi boshlig'i, davlat xavfsizligi leytenanti o'rt.Nasriddinovga. Poytug' qishlog'i. (maxfiy)

Siz taqdim etgan ro'yxat bo'yicha men tomondan shaxsan berilgan topshiriqlarga qo'shimcha ravishda quyida sanab o'tilgan kishilarni qo'lga olish huquqini beramiz:

1. Tullaboev Bultur — 1892 y., quloq.
2. Mahmudbek Ahmadaliev — 1902 y., quloq.

3. Rasulbekov Samiq Qori — 1908 y., quloq.
4. Mamatqulov Abduqodir — 1877 y., quloq.
5. Mavlonov Qoraboy — 1892 y., quloq.
6. Xojiev Turg'un-Abdulla — 1906 y., quloq.
7. Asronqulov Irgash — 1885 y., quloq.
8. Mulla To'xtasin Do'stmatov — 1887 y., quloq.

9. Xo'jaev Haydarchirmash — 1901 y., quloq.

10. Boboyorov Akbar — 1882 y., quloq.
11. Soibov Matashur — 1887 y., quloq.
12. Mamasolixojiev Kdtsirali — 1882 y., quloq.
13. Mulla Xoliqberdi Boltaboev — 1887 y., quloq.
14. Mashrabov Damanbo'ta — 1887 y., quloq.

15. Rahimberdiev Mamatibrohim — 1892 y., quloq.

16. Xojiev Abdurahim Haydar — 1897 y., quloq.
17. To'lakov Egamberdi — 1882 y., quloq.
18. Valiev Xudoyberdi — 1883 y., quloq.
19. Mirzajonov Yusupjon qori — 1903 y., quloq.
20. Ashurmatov Matkarim — 1886 y., quloq.
21. Raxmatov Ochilboy — 1882 y., quloq.
22. Otabaev Ahmadali — 1887 y., quloq.
23. Xojiboev To'ychiboy — 1899 y., quloq.
24. Otajon Rahmatullaev — 1897 y., quloq.
25. Saidxonov To'raxon — 1900 y., quloq.
26. Boqiev Mullabadal — 1892 y., quloq.
27. Mamarasul Xudoyqulov — 1882 y., quloq.
28. Abdurasulov Mullaabdulhaq — 1887 y., quloq.
29. Oqboy so'fi Husanov — 1885 y., diniy mulozim.

30. Jalol Urkunov — 1901 y., quloqning o'g'li sobiq, bosmachi. Barcha qo'lga olinganlarning ijtimoiy faoliyati to'g'risida batafsil ma'lumot to'planishi va ular tergov idorasi tomonidan tasdiqlanishi kerak.

Qo'lga olinganlar tergov shu yil 23 noyabrdan kechiktirilmay tugallanishi lozim.

Ijro etganingiz haqida ma'lum qiling.

O'zbekiston ichki ishlar xalq komissarligi boshlig'ining o'rinbosari, davlat xavfsizligi leytenant (imzo) KULINICHEV».

(Izboskan tuman davlat arxivi, 23-fond. (Izboskan tuman prokuraturasi).

1-ro'yxat, 8-ish, 62-varaq).

Yuqoridagi ro'yxat»Andijonnoma»ning 2004 yil 8 may sonida ham e'lon qilindi.

Quyidagi ijtimoiy-iqtisodiy holat ham diqqatga sazovordir: bir tomondan, O'rta Osiyo mintaqasi milliy resdublikalarga bo'lib yuborilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan sotsialistik jamiyatning iqqisodiy taraqqiyoti uchun mintaq xalqlarining o'zaro hamkorligini ham ta'minlamoq zarur edi. Bunday hamkorlikning muhim shakli yirik xalq xo'jaligi ishlarini birgalikda bajarishdan iborat edi. O'zbekiston, Tojikiston, Qirg'iziston respublikalari xalqlarining birlashgan kuchlari g'ayrati bilan tarixga mashhur Katta Farg'ona kanalining qazilishi xalqlar hamkorligining chindan ham beqiyos namunasi bo'ldi.

270 km uzunlikdagi bu kanalning boryo'g'i 45 kunda qazib bitkazilishida, aslini olganda, o'zbek xalqining sug'orma dehqonchilik tajribasidagi an'anaviy umumhas barcha rahbarlari ish joylarini kanal trassasiga ko' har usuli qo'l keldi. Asrlar davomida kanal, ariq qazib, daryolarga to'g'on solib suv chiqarish va suvdan foydalanishdagi o'zaro hamkorlik — hashar usulidan yangi jamiyatda ham foydalandilar. Respublikaning hamda viloyat va tumanlarning chirgan edilar.”¹

¹ O'sha kitob .74-75betlar.

2-reja “Katta terror” qurbonlarining hayot yo’li va taqdiri.

1937 yil 30-iyuldagi SSSR ichki ishlar xalq komissari Nikolay Yejov imzosi bilan “Sobiq quloqlar, jinoyatchilar va boshqa anti sovet elementlarni qatag’on qilish bo’yicha operatsiya to’g’risida”gi 00447-sonli operativ “Mutlaqo maxfiy” tamg’a ostidagi buyruq qabul qilinadi. Unda anti sovet uyushmalarni tergov qilish materiallarida muqaddam qatag’on qilingan, qatag’on bo’lishdan yashirinib yurgan, surgundan va mehnat posyolkalaridan qochib kelgan sobiq quloqlarning katta qismi qishloqlarda o’rnashib qolganligi qayd etilgan. Shuningdek o’g’rilar, talonchilar jazoni o’tab, qamoqdan qochib kelib, qatag’on bo’lishdan yashirinib yurganlar ham qishloq va shaharlarda in qurib olganliklari buyruqda ta’kidlangan.¹

Buyruqda operatsiyani 1937 yil 5-avgustdan boshlab, 4 oy muddatda yakunlash kerakligi ko’rsatilgan. O’rta Osiyo respublikalarida operatsiya 1937 yil 10-avgustdan boshlanadigan bo’lgan.

VKP(b) MK Siyosiy byurosi 1938 yil 31 yanvarda “Sovetlarga qarshi unsurlar to’g’risida” qaror qablu qilgan. Unga ko’ra, O’zbekiston SSR bo’yicha birinchi toifa bo’yicha 2000, ikkinchi toifa bo’yicha 500 nafar sobiq quloqlar, jinoyatchilar va antisovet elementlar faollarini qamoqqa olish ko’rsatilgan edi.

Ma’lumki, 1937 yilning may –iyun, ayniqsa so’nggi bir yarim oyi davrida, “harbiy-fashistik isyonchilar” otilgandan so’ng bo’lajak ommaviy qatag’on kampaniyasini intensiy rejalashtirish amalga oshirildi. Iyul oyining boshlarida bo’lajak terrorning yuz minglab qurblonlari taqdirini aniqlovchi qarorlar qabul qilingan. Ulardan eng muhimi –Siyosiy byuroning 2 iyuldagi “Sovetlarga qarshi unsurlar to’g’risida 2gi qarori bo’li u “katta terror” davrining eng ko’lamli qatag’on operatsiyasini o’tkazish uchun o’ziga xos start edi.

Ana shu qaror asosida NKVDning 000447-sonli hozirja mashhur bo’lib ketgan buyrug’i (“Quloqlar to’g’risidagi buyruq” deb atalgan) tayyorlangan. Unga ko’ra 1937 yil 5 avgustdan 1938 yil noyabr o’rtalarigacha maxsus tashkil etilgan “uchlik”lar kamida 800 000 kishini, ulardan yarmini otuvga hukm qilganlar. 1937 yil avgustidan NKVD milliy operatsiyalar o’tkazish bo’yicha yana bir necha buyruqlar qabul qiladi. Bu bilan 1937-1938 yillardagi terror qurbonlari soni deyarli 350 ming kishiga ko’paytirib yuboriladi.

1937 yil 30 iyulda SSSR Ichki ishlar xalq komissarining (N.Yejov imzolagan) “Sobiq quloqlar, jinoyatchilar va boshqa antisovet elementlarni qatag’on qilish bo’yicha operatsiya to’g’risida 2gi 00447-sonli operativ mutlaqo mahfiy tamg’aa ostidagi buyrug’ida antisovet uyushmalarni tergov qilish materiallarida avvalida qatag’on qilingan, qatag’on bo’lishdan yashirinib yurgan, lagerlardan, surgunlardan va mehnat posyolkalaridan qochib kelgan sobiq quloqlarning katta qismi qishloqlarda o’rnashib qolgani qayd etilgan. O’tmishda ko’plab qatag’on qilingan cherkovchilar va sektantlar, sovetlarga qartshi qurolli chiqishlarning sobiq ishtirokchilari ham qishloqda o’rnashib olgani ta’kidlangan.

Ayrim holatlarda operativ guruhlarining boshliqlari eng tajribali va qobiliyatli rayon va shahar ichki ishlar boshliqlaridan tayinlangan. Operativ guruhlar zarur operativ xodimlardan shakllangan va ular transport va aloqa vositalari bilan ta’minlangan. Operativ holat talabidang kelib chiqib guruhlarga harbiy yoki militsiya qismlari ham berilgan.

Operativ guruhlar boshliqlariga qatag’on qilinaliganlarni aniqlash va uning hisobini olib borish, tergovga, tasdiqlangan aybllov xusloalariga hamda “uchlik” larning hukm chiqarishlari va ularning ijro etilishiga rahbarlik qilish vazifasi topshirilgan. Ular o’z sektori hujdudida operatsiyani tashkil etish va o’tkazishga mas’ul bo’lganlar.

Har bir qatag’on qilinayotgan usun batafsil ma’lumotlar aybdor qiluvchi materiallar to’plangan. Bu materiallar asosida qamoqqa olinadiganlar ro’yxati tuzilgan. Ular operativ guruh boshlig’i tomonidan imzolangan va 2 nusxada ko’rib chiqish va tasdiqlash uchun Ichki ishlar xalq komissarligiga, NKVDning boshqarma yoki viloyat bo’limi boshlig’iga yuborilgan. Ichki

¹ Шамсутдинов Р. Қатағон қурбонлари. 1938 й. Феврал-сентябр. 5-китоб. “Шарқ”, Т.; 2009. 3-бет.

ishlar xalq komissaligi, NKVD ning boshqarma yoki viloyat bo'limi boshliqlari ro'yxatlarini ko'rib chiqib, taqdim etilgan ro'yxatdagi shaxslarni hisbsga olishga sanksiya berganlar.

Tasdiqlangan ro'yxat asosida operativ guruh boshlig'i qamoqqa olgan. Har bir hibsga olish order bilan rasmiylashtirilgan. Hibsga olish paytida qunt bian tintuq qilingan, qurol, o'q-dori, harbiy anjomlar, portlatuvchi moddalar, zaharlovchi va g'axarli moddalar, aksilinqilobiy adabiyotlar, qimmatbaho metall monetalar, qo'yilmagan, chet el valyutasi, ko'paytiruvchi priborlar va yozishmalar tortib olingna. Baarcha tortib olingan narsalar bayonnoaga kiritilgan.

Hibsga olinganlar Ichki ishlar xalq komissarligi, NKVDning boshqarma va viloyat bo'limlari boshliqlari tomonidan belgilangan punktlarda to'planganlar, bu punktlarda qamoqqa olinganlar uchun yaroqli binolar ajratilgan. Hibsga olinganlar soqchilar nazoratida bo'lganlar. Qochib ketish yoki boshqa qndaydir eksesslar bo'lmasligini kafolatlaydigan tadbirlar belgilangan. "Troyka" qamoqdagi mahbusning ijtimoiy xavfsizligi darajasiga qarab 2-toifa bo'yicha qatag'on qilinayotgan shaxsni 1-toifa bo'yicha qatag'on qilinayotgan shaxsni 2-toifaga o'tkazishi mumkin bo'lgan. "Troyka" o'z yig'ilishlarini bayonnomaorda aks ettirib borgan, ularda har bir xukm qilinayotgan shaxsga nisbatan chiqarilgan hukm yozib borilgan.

Yig'ilish bayonnomasi hukmning ijro etilishi uchun operativ guruh boshlig'iga yuborilgan. Tergov ishiga har bir qilingan shaxsga nisbatan bayonnomadan ko'chirma tirkab qo'yilgan.

Hukmni ijro qilish tartiyuit ham belgilab berilgan. Hukm ijrosi "troyka" raisi ko'rsatmasi bilan amalga oshirilgan. Hukmni ijro etish uchun "troyka2 yig'ilishi bayonnomasidan ko'chirma asos bo'lgan.

1-toifa bo'yicha xukmlar ijrosi respublika xalq komissari NKVD boshqarmasi, bo'lim boshliqlari ko'rsatmasi bilan vaqti va joyi yashirin holatda bajarilgan. Xukmning ijrosi haqidagi hujjatlar har bir hukm etilganing tergov ishiga alohida konvertga solib qo'yilgan,

2-toifa bo'yicha xukm qilingan shaxslar SSSR Ichki ishlar xalq komissaligi Davlat lagerlar Boshvarmasi (GULAG) xabar qilgan naryadlar asosida amalga oshirilgan.

Operatsiyaning o'tkazilishi umumiy rahbarlik qilish SSSR Ichki ishlar xalq komissari o'rinbosari, davlat xavfsizligi Bosh boshqarmasi boshlig'i komkor Frinkovskiyga topshirilgan.

Operatsiyalarga rahbarlik qilish bilan bog'liq ishlar bo'yicha maxsus guruh tashkil qilingan.

Qamoqqa olinganlarning tergov qilish tartiblari buyruqda quyidagicha ko'rsatilgan:

1. Hibsga olingan har bir mahbusga yoki mahuslar guruxiga tergov ishi ochilgan. Tergov tezkorlik bilan va oddiy tartibda olib borilgan. Tergov jarayonida mahbusning barcha jinoiy alovalari ochib tashlanishi kerak bo'lgan.
2. Ish ko'rib chiqilgach, qarab chiqish uchun "troyka"ka yuborilgan. Ishga hibsga olish uchun order, tintuq bayonnomasi, tintuvda olib qo'yilgan materiallar, shaxsiy hujjatlar, hibsga olinganning anketasi, agentura-hisob materiallari, tergov bayonnomasi va qisqa yblov xulosasi ilova qilingan.
3. "Troyka"ni tashkil qilish va uning ishi buyruqda belgilab berilgan. Buyruq bilan respublikalar, o'lkalar va viloyatlar "troyka"lari tarkibini ham tasdiqlangan.

O'zbekiston SSR bo'yicha "troyka" N.A.Zagvozdin (respublika Ichki ishlar xalq komissari), A.Ikromov (O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining birinchi kotibi), To'rabekov (Xalq Komissarlari Soveti raisining o'rinbosari)lardan iborat tasdiqlangan. Uning yig'ilishlarida O'zbekiston SSR prokurori Sheyndlin, kotib sifatida esa O'zSSR NKVD Davlat xavfsizlik boshqarmasi 8-bo'lim boshlig'i leytenanti Yakovlev ishtirok etgan.

"Troyka" yig'ilishlarida respublika, o'lkalar va viloyat prokurori ishtirok etishlari mumkin bo'lgan (agarda "uchlik" tarkibiga kiritilmagan bo'lsa).

"Troyka" o'z ishini tegishli NKVD va uning boshqarma hamda bo'lilari joylashgan punktlarda olib borgan, yoki operativ sektorlar joylashgan joyga borib ish ko'rgan.

"Troyka" unga taqdim etilgan har bir mahbus yoki mahbuslar guruhi, shuningdek, surgun qilinayotgan har bir oila to'g'risidagi materiallarni ko'rib chiqqan.

Hukmlar ijro etilganligi haqidagi “troyk”lar bayonnomalari zudlik bilan SSSR Ichki ishlar xalq Komissarligi Davlat xavfsizligi Bosh boshqarmasining 8-bo‘limiga yuborilgan. Unga 1-forma bo‘yicha hisob kartochkalari ilova qilingan.

Repressiya mashinasini to‘xtatish og‘ir kechdi, uni to‘rt oy muddatda tugatish mumkin bo‘lmadi. 1938 yilda ham davom etdi va uch bosqichda olib borildi.

N.Yejovning 1937 yil 11 dekabrda telegrammasida “quloqlar operatsiyasi” bo‘yicha faoliyatda bo‘lgan “uchlik”lar o‘z ishlarini 1938 yil 1-yanvargacha tugallashi kerak edi.

1938 yildagi qatag‘onlarning 2-bosqichi o‘sha yil sentabridan boshlangan. VKP (b) MQ siyosiy buyrosi 1938 yil 8-sentabrda SSSR ichki ishlar xalq komissarining o‘rinbosari L.Beriyaga birinchi rang Davlat xavfsizligi komissari degan unvon berishga qaror qiladi.¹

1938 yildagi «Katta terror», «Quloqlar operatsiyasi»ning navbatdagi uchinchi bosqichi o‘sha yilning oktabr-noyabr oylariga to‘g‘ri keladi. Bu davrda qatag‘on qilinganlar ishlari SSSR Oliy sudi Harbiy kollegiyalarining sayyor yig‘ilishlarida ko‘rib chiqilgan.

1936 yil 1 oktabrdan 1938 yil 1 noyabriga qadar SSSR Oliy sudi Harbiy kollegiyasi 36906 kishi ustidan hukm chiqargan. Shundan 25355 kishi otuvga, 1059 kishi 15—25 yil muddatga, 3598 kishi 10 yil muddatga, 123 kishi 5 yil muddatga, 61 kishi 3 yil muddatga qamoq jazosiga, 2 kishi SSSRning ichkarisiga surgun qilishga, 20 kishi boshqa jazo choralari ko‘rishga, 30 kishini ozod qilishga, 1188 kishining ishini qayta tergov qilish uchun qaytarib yuborishga hukm qilingan.²

Hukmga tortilganlarning bir kismi O‘zbekistondan edi. 1938 yil oktyabr boshlarida Toshkentda SSSR Oliy sudi Harbiy kollegiyasi sayyor yig‘ilishlari bo‘lib o‘tadi. Ko‘plab partiya, davlat, jamoat arboblari, ayniqsa, ziyolilar, adiblar, fan va oliy o‘quv yurtlari xodimlari, taniqli kishilarning ma‘lum vakillari otuvga, 10, 8 yil qamoq jazosiga hukm qilingan. Oliy jazoga hukm etilganlar o‘sha hukm e‘lon qilingan kunning o‘zidayoq otib tashlangan. Ular orasida o‘zbek xalqining asl farzandlari Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho‘lpon, Rahim Inog‘omov, Usmonxon Eshonxo‘jaev va boshqalar bo‘lgan. SSSR Oliy sudi Harbiy kollegiyasining Toshkentdagi yig‘ilishlari bayonnomalari O‘zbekiston hududidagi davlat va tegishli arxivlarda, jumladan, MXX Arxivida ham yo‘qligi ma‘lum bo‘ldi.

1938 yil 28 martda Siyosiy byuro a‘zolaridan I.V.Stalin, V.M.Molotov, L.M.Kaganovich, A.A.Jdanov, K.Ye.Voroshilovlar O‘zbekistondagi elita vakillaridan 165 nafari qatag‘on qilinishi mumkin bo‘lgan ro‘yxatni imzolaydi. Ro‘yxat bo‘yicha 1938 yil 4—7 oktabr kunlarida Toshkentda SSSR Oliy sudi Harbiy kollegiyasining sayyor yig‘ilishi bo‘lib, 155 kishi otuvga, 10 kishi MTL qamog‘iga xukm kilinganligi manbalarda qayd etilgan. Ular orasida Alimov Komiljon, Ortiqov Isroil, Ayupov A‘zam, Boltaev Karim, Devonov Xudoybergan, Islomov Akbar, Islomov Rustam, Eshonxo‘jaev Usmon, Karimov Abdullajon, Manjara Dmitriy, Ramazonov Qayum, Ramzi Mannon Abdullaevich, Saidov Ziyoy, Sorokin Qosim, Sulaymonov Abdulxamid (Cho‘lpon), Tojiev Abdulhay, Tursunxo‘jaev Saydullaxo‘ja, To‘rabekov Jo‘rabek, O‘lmasboev Nuriddin, Fitrat Rauf Rahimovich, Hoshimov Otajon, Xo‘jaev Baxshulla Jo‘raevich, Xudaybaxitov Anqaboy, Shermuxammedov Mirmuhsin, Yunusov G‘ozi, Yoqubov G‘ulom, Nosirov Usmonlar bor edi.¹

SSSR Xalq Komissarlari soveti raisi V.Molotov, VKP(b) Markaziy Komiteti kotibi I.Stalin imzosi bilan 1938 yil 17 noyabrda «Prokuror nazorati va tergov olib borishda qamokqa olishlar to‘g‘risida»gi hukumat va partiya qo‘shma qarorini Ichki ishlar, prokurorlar, partiya kotiblariga yuboradilar.

1937—1938 yillarda partiya rahbarligida NKVD organlari xalq dushmanlarini tor-mor kilishda va SSSRni trotskiychilar, buxarinchilar, eserlar, mensheviklar, burjua millatchilar, oq gvardiyachilar, qochoq quloklar va jinoyatchilardan chiqqan, ayniqsa, Yaponiya, Germaniya, Polsha, Angliya va Fransiya razvedkasi uchun jiddiy tayanch bo‘lgan ko‘p sonli josus, terrorchi,

¹ Ўша манба. 6-бет.

² Шамсутдинов Р. Қатағон қурбонлари. 1938 й. Феврал-сентябр. 5-китоб. “Шарқ”, Т.; 2009. 10-бет.

¹ Шамсутдинов Р. Қатағон қурбонлари. 1938 й. Феврал-сентябр. 5-китоб. “Шарқ”, Т.; 2009. 11-бет.

diversantlar va zararkunanda xodimlardan tozalashda katga ish olib borganlari qarorda qayd qilinadi.

Bir vaktning o'zida NKVD organlarining SSSRga kelgan polyaklar, ruminlar, finlar, nemislar, latishlar, estonlar, xarbiylar va boshqalardan iborat chet el josus-diversion agenturasiga mansub siyosiy muhojirlar va qochoqlar niqobida katta miqdorda tashlanganlarni tugatishda katga ish olib borganlari ham ta'kidlanadi.

Mamlakatni diversiyachi, isyonchi va josus xodimlardan tozalash sotsialistik qurilishning bundan buyongi muvaffaqiyatlarini ta'minlashda ijobiy rol o'ynaganligi, biroq bu bilan SSSRni josuslardan, zararkunandalardan, terrorchilardan va diversiyachilardan tozalash ishini yakun topdi, deb o'ylamaslik kerakligi e'tirof etiladi.

Endilikdagi vazifada, bunday ish davom etishi, SSSRning barcha dushmanlariga qarshi shafqatsiz kurash olib borish va bu kurashni ancha takomillashgan va ishonchli usullar yordami bilan olib borish kerakligi uqtiriladi.

Ayni vaqtda qo'shma qarorda 1937—1938 yillarda dushman unsurlarni yo'q qilish bo'yicha NKVD, sud va prokuratura organlari tomonidan tergov va sud ishlarini olib borishda yirik nuqsonlarga yo'l qo'yilgani, NKVD va prokuratura organlari ishida buzilishlar yuz bergani, ustiga-ustak, Markazda va joylarda NKVD organlariga kirib olgan xalq dushmanlarining tergov va sud agentura ishlarini har jihatdan chalkashtirishga uringanliklari, sovet qonunlarini ongli ravishda buzganlari, ommaviy, asossiz qamoqqa olganlari, ayni vaqtda o'z sheriklarini, ayniqsa, NKVD organlarida o'tirib qolgan nopok unsurlarni saqlab qolganliklari ko'rsatilgan.

Birinchidan, NKVD xodimlari agenturakuzatuv ishlariga e'tibor bermay, juda ham sodda yo'l bilan ommaviy qamoqqa olish tajribasini qo'llaganlar, tekshiruvning to'laligi va sifati haqida g'amxo'rlik qilmaganlar.

NKVD xodimlari uchun agentura-kuzatuv ishlaridan shu qadar begonalashib qolganki, ularning aksariyati ommaviy qamoqqa olish uchun «limitlar» berilishi to'g'risidagi masalani qo'zg'ash bilan cheklanib qolganlar. Oqibatda zaif holatdagi agentura ishlari yanada izdan chiqqan, agentura tadbirlaridan NKVDchilarning ko'pini ko'ngli sovib ketgan.

Agentura ishlari yaxshi yo'lga qo'yilmagani uchun qamoqqa olingan chet el razvedkasining josuslari va diversantlar to'lasincha fosh etilmay, ularning jinoiy aloqalari ochilmay qolgan.

Agentura ishlari ahamiyatini to'g'ri, yetarli baholamaslik mumkin emasligi, agentura ishlarini to'g'ri yo'lga qo'yish, qamoqqa olishlarni cheklash, tergovni yaxshilash kerakligi haqidagi ko'rsatmalar VKP(b) MK va SSSR XKSning 1933 yil 8 maydagi, 1935 yil 17 iyundagi va nihoyat 1937 yil 3 martdagi qarorlariga ahamiyat berilmagan.

Ikkinchidan, NKVD organlaridagi eng yirik kamchilik — tekshirish ishlaridagi tomir otib ketgan, buzilgan sodda tartib bo'lib, tergovchi ayblanuvchidan o'z aybiga iqrar bo'lishi bilangina kifoyalanib, bu aybni guvohlar ko'rsatmasi, ekspertiza aktlari, ashyoviy va boshqa dalillar bilan mutlaqo mustahkamlamagan, ko'pincha qamoqqa olingan mahbus oylab va undan ko'proq vaqt mobaynida tergov qilinmagan, mahbuslarni so'roq qilishda har doim ham bayonnoma yozilmagan.

Mahbusning ko'rsatmasini tergovchi o'ziga belgilab olib, umumiy bayonnoma yozgan, mahbus ko'rsatmasini so'zma-so'z, aynan qayd kilish to'g'risidagi Jinoyat-protsessual kodeksining 138-moddasi talabi bajarilmagan. Ko'pincha, so'roq bayonnomasi ayblanuvchining o'z jinoyatiga iqrar bo'lmagunicha yozilmagan. Ayrim hollarda so'roq bayonnomalariga ayblanuvchiga qo'yilgan u yoki bu aybni rad kiluvchi ko'rsatmalari yozilmagan.

Tergov ishlari, qoralama qog'ozlar pala-partish rasmiylashtirilgan, noma'lum kishi tomonidan qalam bilan yozilganlar o'chirilib yuborilgan, ko'rsatma yozuvlari tuzatilgan, so'roq qilinganlarning imzosi qo'yilmagan, tergovchi tomonidan tasdiklanmagan ko'rsatmalar bayonnomalari, tasdiqlanmagan ayblovlarning xulosalari kiritib qo'yilgan.

Prokuratura organlari o'zlari tomonidan bunday kamchiliklarni tugatish uchun zarur choralar ko'rmay, tergovda o'zlarining ishtirokini ta'minlash, tergov materiallarini ro'yxatga olish va shtamp bilan tasdiqlab ko'yishdangina iborat deb bilganlar. Prokuratura organlari

inqilobiy qonunchilikdagi buzilishlarni tugatish emas, aksincha, bu buzilishlarni amalda qonunlashtirib qo'yganlar.

Tergov ishiga bunday mas'uliyatsizlik bilan qarash amaldagi qonunning protsessual qoidalariga qo'pol ravishda buzilishiga olib kelgan, bundan esa Markazda va joylardagi NKVD va prokuratura organlariga kirib olgan xalq dushmanlari ustalik bilan foydalanganlar. Ular ongli ravishda sovet konunlarini buzganlar, yolg'onlar to'qiganlar, tergov hujjatlarini soxtalashtirganlar, arzimasi asoslar, xatto hech qanday asossiz qamoqqa olib, jinoiy javobgarlikka tortganlar, provakatsion maqsadda aybsiz kishilarga qarshi «ishlar» ochganlar va ayni vaqtda antisovet jinoyat faoliyatidagi o'z ishtirokchilarini ham yo'q qilinishidan yashirib, saqlab qolganlar. Bunday holatlar NKVDning markaziy va joylardagi apparatlarida bo'lgan.

NKVD va prokuratura organlari ishidagi bu xato-kamchiliklar ana shu organlarga kirib olgan xalq dushmanlari partiya nazorati va rahbarligi e'tiboridan chetda qolgani hamda oqibatda ular o'zlarining va sheriklarining sovetlarga qarshi qo'poruvchilik, buzg'unchilik faoliyatini davom ettirishlariga ko'maklashganlar.

NKVD organlariga tergov ishlarini olib borishda Jinoyat-protsessual kodeksining barcha talablariga aniq rioya qilish vazifasi yuklatiladi. Xususan, tergovni qonunda belgilangan muddatda tugatish, mahbuslar qamoqqa olinganidan keyin oradan 24 soat o'tmay tergov qilish, har bir tergovdan so'ng zudlik bilan bayonnoma tuzish, unga tergov qachon boshlanib, qachon tugagani ko'rsatilishi, prokuror tergov bayonnomasi bilan tanishish chog'ida bayonnomaga ish bilan tanishganligi to'g'risida yil, oy, kun va soatlarni yozib qo'yishligi ko'rsatiladi.

Tintuv vaqtida olib qo'yilgan hujjatlar, yozishmalar va boshqa predmetlarni zudlik bilan tintuv o'tkazilgan joyda qayd etib, barcha qayd qilinganlarni batafsil ro'yxatini yozib 19 yilligi belgilanadi.

Prokuratura organlari tergov ishini olib borayotgan NKVD organlari ustidan prokurorlik nazoratini Jinoiy-protsessual kodekslari talablariga muvofiq olib borishlari kerakligi ham qarorda aytilgan. Bunga muvofiq prokurorlarga tergov organlarining qonunda belgilangan tartibda tergov ishlarini olib borishi bajarilishini muntazam tekshirib borish vazifasi yuklatiladi.

Prokurorlik nazorati rolining ortib borayotgani va prokuratura organlariga qamoqqa olinganlarni NKVD organlari tomonidan tergov olib borishlari uchun mas'uliyat yuklanadi. Bundan bu NKVD organlari olib boradigan tergov ishlari ustidan prokuror nazorati mas'uliyati barcha prokurorlar zimmasiga yuklatiladi. Bunday nazoratni olib boruvchi barcha prokurorlarni tegishli oblast, o'lka partiya komitetlari, Milliy Kompartiyalar Markaziy Komitetlari va prokurorlar taqdimiga ko'ra VKP(b) MK tasdiklaydigan bo'ladi.

Shunday qilib, Lenin asos solgan, Stalin takomillashtirgan Sovet rejimi qatag'on siyosatining eng yuqori nuqtaga ko'tarilgan davri 1937— 1938 yillar fojialarini birgina O'zbekiston misolida ko'rib chiqdik. Bu davr «katta terror» davrining kulminatsion nuqtasi ekani, kimlar tomonidan «ijod qilingani», bu mudhish voqea, fojيانing ildizlari chuqur ekanligi, uni aniqlashda turlicha qarashlar va talqinlar borligi ma'lum bo'ldi.¹

Bundan tashqari, mamlakatning turli mintaqalaridagi, xatto poytaxt Moskva va yirik shaharlarda anchadan beri rahbarlik lavozimlarini egallab kelayotgan partiya funksionerlari, ya'ni qorchalonlari o'zlarining mavqelarini, rahbarlik lavozimlarini qo'lda saqlab kolish maqsadida «aksilinqilobchilar», «sovetlarga qarshi kuchlar», «sobiq quloqlar», «jinoyatchilar», sovetlarga saylov o'tkazish jarayoniga qarshilik ko'rsatayotganliklarini ro'kach kilib, ularga nisbatan keskin repressiv choralar ko'rishni Markazdan, Siyosiy byurodan, Stalindan so'rab murojaat qiladilar. Aslida, ular 1936 yilgi SSSR Konstitutsiyasida belgilab berilgan yangi saylov tizimiga qarshi o't ochgan edilar. Chunki, yangi saylov tizimida real hokimiyatni partiyadan xalq ko'liga olib berish, keng xalq demokratiyasini joriy qilish, davlatchilikni mustahkamlash vazifalari ilgari surilgan edi. Yangi saylov tizimi asosida saylov o'tkazish tufayli ana shu mahalliy partiya rahbarlari real amal vazifalaridan mahrum bo'lishlari mumkin edi. Shu bois partiya funksionerlari hamma joyda, hamma sohada izg'ib yurayotgan sovetlarga qarshi kuchlar, sobiq

¹ Шамсутдинов Р. Қатағон қурбонлари. 1938 й. Феврал-сентябр. 5-китоб. «Шарқ», Т.; 2009. 12-бет.

quloqlar va jinoyatchilarni qamoqqa olish, otuvga hukm etish takliflari bilan Markazga murojaat qila boshlagan edilar. Xullas, 1937—1938 yillardagi «katta terror»ning yuzaga kelishida mahalliy partiya funksionerlarining oʻrni va roli benihoya katta boʻlgan.

Sobiq Ittifoqning bir qismi boʻlgan Oʻzbekistonda ham ana shu mahalliy partiya funksionerlari yangi saylov tizimidan qoʻrqib, hadiksirab, xavfsirab Markazga yoʻllagan xatlarida, axborotlarida, rasmiy anjumanlardagi chiqishlarida, respublikaning shahar va qishloqlarida, sanoat korxonalarida, kolxoz va sovxozlarda, oʻquv muassasalarida, xalq xoʻjaligi tarmoqlarida antisovet kuchlar, burjua millatchilari, ruhoniya vakillari, sobiq quloqlar, jinoyatchilarni zudlik bilan qamoqqa olish, eng uchiga chiqqanlarini otib yuborish takliflarini bayon qilgan. Oqibatda mahalliy tashabbus inobatga olindi, xatto Oʻzbekiston rahbariyati Markazdan qatagʻon qilinadiganlar miqdorini oshirib berish toʻgʻrisida qoʻshimcha limit berish toʻgʻrisida soʻraganlar. Ayni vaqtda, Markaz soʻralgan limitni qisqartirib berishga majbur boʻlgan.

Sobiq Ittifoqning barcha joylarida boʻlganidek Oʻzbekistonda ham Markazning direktivasi, buyrugʻi tezkorlik bilan bajarildi. Bu mudhish «vazifa»ni bajarishda respublika, okruglar, tuman partiya tashkilotlari, Sovetlarning ijroiya komitetlari, ichki ishlar xalq komissarligi va uning joylardagi sektor va boʻlimlari rahbarlari, xodimlari jonbozlik koʻrsatib, faoliyatda boʻldilar.

«Katta terror» operatsiyasini oʻtkazishda koʻplab noqonuniy tadbirlar amalga oshirildi, inson haq-huquqlari mislsiz toptaldi, begunoh yurtdoshlarimizga yolgʻon toʻqima, soxta ayblar qoʻyildi, xilma-xil chaquvlar, tuhmatlar ishga solindi, tsrgov chogʻida mahbuslar behad qiynovga, ham jismoniy, ham ruxiy azobga solindi. «Uchlik»ning hukmi bilan minglab yurtdoshlarimiz otuvga hukm etildi, hukmlar esa joylarda tezkorlik bilan ijro etildi, har bir okrugda qatlgohlar, nomaʼlum qabristonlar paydo boʻldi. 8—10 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm qilingan katagʻon kurbonlari uzoq yurtlarga — Shimolga, Uzoq Sharkqa, Sibirga, Uralga, Shimoliy Kavkaz, Shimoliy Qozogʻistonga surgun qilindilar. Ularning katta qismi oʻsha begona yurtlarda qamoq azoblariga bardosh bera olmay halok boʻldilar, juda ham oz qismi keyinchalik ozod boʻlib, yurtga qaytdilar.

«Katta terror» qurbonlari Oʻzbekiston mustaqillikka erishgandan soʻng reabilitatsiya qilindi, nomlari abadiylashtirildi.

Bir soʻz bilan aytganda, sovet rejimi tomonidan 1937 yil iyulidan boshlangan «Qulsiugar operatsiyasi» 1938 yilning noyabrigacha davom etdi. Bu mudhish qatagʻon butun sobiq Ittifoq xalhari tarixiga eng fojiali sahifa boʻlib kirdi. Ular bu fojiani hech qachon, aslo oʻz qalblari va xotiralaridan chiqarmaydilar. Bu fojia tariximizning eng ogʻir, qaygʻuli, alamli, hasratli, motamli sahhifasidir.

3. Qatag'on qurbonlarining hozirgi avlodlari

Mustaqillik xalqimizga shunday keng imkoniyatlar yaratib berdiki bunday imkoniyatlar natijasida xalq xo'jaligi barcha soxada rivojlanib bormoqda. Ayniqsa, fan, madaniyat, ta'lim, san'at va sport soxalarida erishayotgan yutuqlarimiz benixoya kattadir. Jamiyatimiz taraqqiyotiga xissa qo'shayotgan Izboskanliklardan istidodli yozuvchi Rustam Raxmonov bo'lib u o'zini "Qishlog'imiz bolalari", "Baxt haqida baxs", "Sevgi qarimas", "Mehr ko'zda", "Kelin" kabi asarlari bilan o'zbek adabiyotiga katta xissa qo'shdi.

Bu "Hurmat belgisi", "Xalqlar do'stligi" ordenlari "O'zbekiston mustaqilligi" nishoni bilan taqdirlangan.

1937 yil 29 avgust yig'ilishida ya'ni 4- batonnoma bo'yicha 66 kishi ustidan xukm chiqarilgan 36 kishi 1-toifa bo'yicha qatag'on qilingan yani otuvga, qolgan qismi 10 yil qamoq jazosi berilgan.

Ulardan biri Rahimberdiyev Mamat Ibrohim 1890 yilda Izbosgan rayonida Mayrat qishlog'idan, o'bek quloq. 1933 yil yashirinch qacharadan Qarshiga o'tib 1934 yillargacha shu joyda qolgan. qamoqqa olingunga qadar kolxo'zda duradgorlik qilgan. Qoshg'arda bo'lganida muxojirlar bilan bog'lanib Sovet ittifoqidagi dehqonlar ahvoli to'g'risida aksilinqilobiy sabotajga chaqirilgan, kalxo'zchilar orasida kapitalistik tuzumni maqtab uni sovet xokimiyatiga qarshi qo'rganlikda ayblangan.

5-aprel 211 yil bu insonni toppish xususidagi amaliy ishlarni boshladik. Rustambek Temirovich Shamsutdinovning asarlarida berilgan malumotlarni olib Izbosgan reyonga Maygar qishlog'igabordim. U yerda dastlab MFY ga kirib dam olish kuni bo'lganligi sababli mahalla komiteti va bitta tog'a bilan suhbatlashib, quloq haqida malumot berdim, ular yoshi kattalardan so'rab surishtirishim kerakligini aytishdi va Abdullo buva degan insonni yoniga borishim kerakligini aytdi. Abdullo buva ham, Bahromiddin xoji aka, 2- jahon urushida qatnashgan Nurmatvoy tog'a Madaminovlar ham tanimadi. 88 yoshga kirgan bo'lsada Nurmatvoy tog'a yoshi ulg'ayib xotirasidan o'chganligini aytdi. Shu xududda yashovchi ayollardan so'radim. Bir o'pa kattasi yani Mullag'aniboy Qirg'izov Danoga surgun qilinganligi va boshqa malumotlar ammasi tomonidan aytib berganligini bizga tushuntirdi keyin Mavlonov tog'a, Egamberdi tog'alardan ham savol- javob o'tkazdim. Oxirida Cofboy MFY O'zbekiston ko'chasida yashovchi Abdulxay xoji buva bilan suxbatlashdim.

8- bayonnoma 1937 yil 8-sentabrda "Uchlik" (Zagvozdin, To'rabekov, Sheyndlin) O'zbekiston Ichki ishlar Vaziri Kotib Prokror quyidagi Ismatov Abdulla Ustidan hukm chiqargan. 1880 yilda Izbosgan rayoni Lug'umbek qishlog'ida tug'ilgan. Quloqqa tortilgan 1931 yilda ozodlikdan mahrum qilingan. Xibisga olingan paytda kalxoz azosi bo'lgan. Kolxozchilar orasida targ'ibot olib brogan, zayomga yozilishiga qarshilik qilgan, go'yo turmalarda sovet xokimiyati odamlarni ochlikdan xalok qilmoqda, urib azob bermoqda degan ig'volar tarqatganlikda, paxta terilishini barbot qilishga tashviqot qilishda ayblangan. 1931 yil paxtalarga zarar kunandalik qilgani uchun 4 yilga ozodlikdan maxrum qilingan. Andijon sektori 2935-sonli ishi bo'yicha A. Ismatov otuvga xukm qilingan.

Bu insonni izlab toppish bo'yicha 9.05/2011 kuni ilmiy raxbarim Nasriddinov Qobiljon domla bilan Lug'umbekka Lug'umbek markazida tushib MFY va selsovet bekikligi sababli u yerlarga kira olmadik. Lekin bizga yordam beruvchi inson uchradi. U inon xozir nafaqada avval 40 yil til-adabiyot soxasi bo'yicha o'qituvchilik qilgan Ustoz Abdulla Xaydarov (FDU da o'qigan) bir nechta yoshi ulug' insonlar bilan tanishtirdi. Dastlab Lug'umbek qishlog'i Istiroxat bog'idagi samovarga olib bordi. U yerda 86 yoshli umri kolxozda traktorchilik qilib o'tgan Mirza Abar Toshpo'latov bilan suxbatlashtirdi. U suxbat davomida 1925- yilda tug'ilganligi, o'sha davrda 12-13 yoshda bo'lganligini tasdiqladi. 50-yillardan boshlab kalxozda traktorchilik bo'lib ishlagan va biz uchun eng muhim malumot-quloq va qatag'on qilingan insonlar nohaq ayblanganligi va o'z ko'zi bilan ko'rgan voqeani aytdi. Ya'ni u paytda ana shu insonlarning mol-

mulki juda ko'p bo'lganligi bois ko'pchilikniki arzon narhga davlat ixtiyoriga o'tkazilganini aytib o'tdi. Va keyin bu voqealar Jaydaq mavzeyida o'tganligini tasdiqlab bizni ana shu tomonga borishimizni aytdi. Suratlarga tushib bo'lgach samovordan chiqib xayrlashdikda Jaydaq tomon (qishloq shifoxonasiga yo'l oldik) Bu yerlar eski Kriv kolxozi ekanligi ma'lum bo'ldi. Hozir Chek MFY deb ataladi. Do'kon yonida bir tog'a bilan ilmiy rahbarim, Abdulla tog'a suxbatlashishdi va bizni 81 yoshli Xakimjon buvaning uyiga boshlab borishdi. Xakimjon buvani uyiga kirib, quloqlar va qatag'on yillari, nohaq ayblovlar va Mustaqillik tufayli Prezidentimizning chiqargan farmoni bo'yicha suxbat ancha uzoq davom etdi, bu tog'a eslab o'sh davrdagi insonlarni bunday ahvolga tushishiga ana shu davr oqimiga to'g'ri kelmagani uchun yo'q qilinganligini aytdi, biz uchun kerakli bo'lgan inson quloq Ismatov Abdullani farzandi (eski Voroshilov kolxozidagi hozir yuqorida aytilgan Jaydaqda yashashligi taxmin qilindi).

6. Abduholis mirobni 7-chi xotinidan o'g'li Abdullaev Abdurahim 1956 yilda tug'ilgan. Matematika fanidan Lug'umbekdagi qishloq xo'jaligi kollejida dars berad. Ismatov Abdullani chevarasi Abdurahim aka bo'lsa uning otasi Abduxolis Abdullaevdir, bu kishi vafot etgan, undan, bir o'g'il va bir qiz qolgan. Demak, Ismatov Abdulla otalari katta mulkdor yer egalari bo'lib o'tgan. Abdurahim domlani ikkinchi uyi o'rnida 46 – so'tik joyda oldin qurilgan uy bo'lgan. Tashqi va ichki qo'rg'ondan iborat bo'lgan. Tashqi qo'rg'onda mol qo'ylari boqilgan bo'lsa ichki qo'rg'onda ayollar istiqomat qilganlar. Bu joyning o'rtasidan ariq o'tganligini hozir yo'q bo'lib uylar ham buzilganligini Abdurahim domla so'zlab berdi. 1991 yilda bu yer o'rniga Masjid qurilgan, lekin biroz o'tib foydalanilmay qo'yilgan. Bu bino otalarini ruhlari shod bo'lsin deb qurilgan edi. Afsuski bu joylar boshqa insonlar tomonidan talashilgan. 2011 yilga kelib bu xudud qonuniy hujjatlanib Abdurahim domlani katta o'g'liga xatlab berilgan. Hozirda bu yerdan foydalanilmoqda. Biz shu uyda o'tirib o'z ko'zimiz bilan ko'rdik va sur'atlarga oldik. Abdurahim domlani ota –bobolari hammasi ziyoli insonlar bo'lib o'tishgan. Xattoki domlani eslashiga ko'ra otasi Abduxolis tog'ada hayotlik chog'ida undan ham oldin yashagan otalari hayoti haqida yozilgan plastinka mavjud bo'lganligini aytdi, hozir Abdurahim domlani o'rtog'ida saqlanadi.

Izboskanlik Yo'ldashev Sohibqiron, Ismatov Abdulla qatag'on qurbonlarining avlodlari xotirasida shu narsalargina saqlanib qolgan. Ularning avlodlari qo'lini duoga ochib, yurtimiz tinch, osmonimiz musaffo bo'lishini yaratgandan tilab, mana shunday tinchlik kunlarida yashayotganimizga shukronalar keltirib, mustaqilligimizni mustahkam bo'lishini tilab, mana shunday ezgu ishlarga rahbarlik qilayotgan yurtboshimizning umrlari uzoq bo'lishini va shunday xayrli ishga bel bog'lab, tinmay harakat qilib, sovetlar hukmronligi davrida asossiz ravishda quloq qilingan, surgun qilingan va qamalgan yurtdoshlarimizning nomma-nom aniqlashga urinayotgan professor Rustambek Shamsutdinovga yaratgandan uzoq umr, ishlariga esa ulkan muvaffaqiyatlar tilab, o'z minnatdorchiliklarini bildirmoqdalar.

Xullas, Vatan tarixining 1937-1938 yillari hasrat va nadomatlar bilan limo-lim to'lib toshgan davrdir. Bu davrda amalga oshirilgan dahshatli va qonli qatag'onlar o'zbek xalqining har bir farzandi uchun ibratli hayot sabog'idir. Ilohim, bunday qaro kunlar xalqimizning boshidan abadiy abad ko'chgani rost bo'lsin.

XULOSA

Kollektivlashtirish, quloqlashtirish, siyosiy qatag'onlar, "Katta terror" mavzusi sovet davri tarixshunosligidagi ko'p tadqiq etilgan, ayni vaqtda har tomonlama soxtalashtirilgan, mavzulardan hisoblanadi.

Aslida esa sovetlarning kollektivlashtirish siyosati va amaliyoti o'zbek milliy qishloqlari aholisi, dehqonlar ommasi onggi, qalbiga sig'maydigan, mahalliy sharoitga, dehqonlar hayotiga mutlaqo singmaydigan tadbir edi. Shu bois dehqonlar ommasi ana shu tadbirni qabul qilmadilar. Unga qarshi beayov qarshilik ko'rsatdilar, norozilik bildirdilar, inqilobiy junbishga keldilar.

Zo'rlik va zo'ravonlik bilan o'tkazilgan kollektivlashtirish natijasida bir din, bir iymon, bir islom vakillari orasida beboshliklar, kuchli noroziliklar, isyonlar boshlanib ketgan.

XX asrning 20 yillar oxiri 30-yillar boshlarida zo'ravonlik, qo'pollik, qo'rqitish, ma'muriy ta'qib-taziyq qo'llash va hatto qurolli kuch ishlatish orqali joylarda o'tkazilgan kollektivlashtirish manzarasi respublika partiya, davlat, hukumat rahbariyatiga ham ma'lum edi. Bu kabi holatlarga barham berish choralari ko'rishga urinilgan edi. Buni Respublika, davlat, hukumat rahbariyatining barcha okrug ijroqo'mlari, tuman ijroqo'mlari va qishloq sovetlariga yo'llagan "Kollektivlashtirishdagi yo'l qo'yilgan nuqsonlarni tuzatish to'g'risida"gi ko'rsatmasidan ham bilish mumkin.

Dehqonlar ommaviy va ixtiyoriy tarzda kolxozlarga kirmaganlar. Aksincha, ular kuchli va keskin qarshilik ko'rsatganlar, ular zo'ravonlik bilan, o'ta ma'muriyatchilik, buyruqvozlik bilan olib borilgan kolxozlashtirishga va shu bilan bog'liq "quloq"qa tortish, surgun qilishga qarshi g'alayonlar, noroziliklar, qo'zg'olonlar bilan javob berganlar. Kollektivlashtirish O'rta Osiyodagi minglab dehqon oilalari uchun fojea bo'lgan.¹

1937-38 yillar davri "katta terror" davrining kulminatsion nuqtasidir. Biz bu "katta terror" kimlar tomonidan "ijod qilingani" va bu mudhish fojeaning ildizlari chuqur ekanligining va uni aniqlash yo'lida turli qarashlar, talqinlar borligining shohidi bo'ldik.

Yuqoridagi fikrlardan shu narsa ayon bo'ladiki, siyosiy qatag'on va uning bir qismi "katta terror" ning yuzaga kelishida muayyan ob'ektiv sabablar ham bo'lgan. Partiya va sovet hokimiyatiga, ayniqsa ularning rahbariyatiga qarshi qaratilgan muxolifat kuchlar kurash olib borib, siyosiy hokimiyatni o'z qo'llariga olish uchun bor imkoniyatlarini ishga solib, barcha vositalarni qo'llab, tish tironqlari bilan jang olib bordilar. Bundan tashqari, mamlakatning turli mintaqalaridagi, hatto poytaxt Moskva va boshqa yirik shaharlarda uzoq vaqtdan beri rahbarlik lavozimlarini egallab kelayotgan partiya funksionerlari mavqelarini, rahbarlik lavozimlarini qo'lda saqlab qolish maqsadida " aksilinqilobchilar", "sovetlarga qarshi kuchlar", "sobiq quloqlar", "jinoyatchilar". "sovetlarga qarshi kuchlar", " sobiq quloqlar", " jinoyatchilar", sovetlarga saylov o'tkazish jarayoniga qarshilik ko'rsatayotganliklarini ro'kach qilib, raqiblariga nisbatan keskin repressiv choralar ko'rishni Markazdan, Siyosiy byurodan, Stalindan so'rab murojaat qildilar. Aslida ular 1936 yilgi SSSR Konstitutsiyasida belgilab berilgan yangi saylov tizimiga qarshi o't ochgan edilar. Chunki yangi saylov tizimida real hokimiyatni partiyadan xalq qo'lga olib berish, keng xalq demokratiyasini joriy qilish, davlatchilikni mustahkamlash vazifalari ilgari surilgan edi. Yangi saylov tizimi asosida saylov o'tkazish tufayli ana shu mahalliy partiya rahbarlari real amal-vazifalaridan mahrum bo'lishlari kutilardi. Shu bois partiya funksionerlari barcha " sovetlarga qarshi kuchlar" –sobiq quloqlar va jinoyatchilarni qamsiqqa olish, otuvga hukm etish takliflari bilan Markazga murojaat qildilar. Xullas, 1937-1938 yillardagi "katta terror" ning yuzaga kelishida mahalliy partiya funksionerlarining o'rni va roli ham oz bo'lmagan.

Yejovning 1937 yil 30 iyuldagi 00447-sonli mutlaqo maxfiy tamg'a ostidagi "Sobiq quloqlar, jinoyatchilar va boshqa antisovet elementlarni" ni qatag'on qilish bo'yicha operatsiya o'tkazish to'g'risidagi operativ buyrug'i O'zbekistonda ham tezkorlik va "ilg'orlik" bilan

¹ Р.Шамсутдинов. Коллективлаштириш курбонлари хакида янги маълумотлар // Ватанимиз ўтмишидан. – "ANDIJON NASHRIYOT-MATBAA", 2007. – Б. 17.

bajarildi. Bu amaliyotni bajarishda respublika, okrug, rayon partiya tashkilotlari, sovetlarning ijroiya komitetlari, Ichki ishlar xalq xalq komissarligi va uning joylardagi sektor va bo'limlari xodimlari jonbozlik ko'rsatdilar. Bu operatsiyani o'tkazishda ko'plab noqonuniy tadbirlar amalga oshirildi, inson haq-huquqlari mislsiz toptaldi, begunoh yurtdoshlarimizga to'qima, soxta ayblar qo'yildi, xilma-xil chaquvlar, tuhmatlar ishga solindi, tergov chog'ida mahbuslar behad qiynovga, ham jismoniy, ham ruhiy azobga solindi. "Uchlik" ning hukmi bilan minglab odamlarimiz otuvga hukm etildi, hukmlar joylarda tezkorlik bilan ijro etildi, har bir okrugda qatlgohlar, noma'lum qabristonlar paydo bo'ldi. 8-10 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm qilingan qatag'on qurbonlari uzoq-uzoq yurtlarga—Shimolga, Uzoq Sharqqa, Sibirga, Uralga, Shimoliy Qozog'istonga surgun qilindilar. Ularning katta qismi o'sha begona yurtlarda qamoq azoblariga bardosh bera olmay halok bo'ldilar, juda ham oz qismi keyinchalik ozod bo'lib yurtga qaytdilar.

Ana shu cheku-chegarasi yo'q "Katta terror" izboskanlik yurtdoshlarimizning ham boshiga musibatlar, og'ir kulfatlar keltirdi.

Aybsiz aybdorga aylanib, uy-joyi, ahli ayoli, farzandlaridan narida, olis o'lkalarda kechgan og'ir turmush, alamli taqdirlarni eslasak, ko'nglimizdan o'tkarsak ajdodlarimizning erk, istiqloq, yurt, ota-ona va farzandlari uchun jon kechib, mardona mehnat qilib, ularning tinchligi va farovonligi uchun shahid ketgan, yuqorida nomlari tilga olingan izboskanliklarning qalbida ham hasratli, o'tli xotiralar borligiga guvoh bo'ldik.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlool, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild. –T.: O'zbekiston, 1996.
2. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-jild. –T.: O'zbekiston, 1996.
- 3 Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. –T.: Sharq, 1998.
- 4 Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7- jild. –T.: O'zbekiston, 1999.
5. Karimov I.A. Imperiya davrida bizni ikkinchi darajali odamlar, deb hisoblashar edi. // “Xalq so'zi” gazetasi 2005 yil, 19 yanvar.
6. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: O'zbekiston, 2008.
- 7 Karimov I.A. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. –T.: O'zbekiston, 2009. - 24 b.
8. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston, 2009.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni “Qatag'on qurbonlari xotirasini abadiylashtirish to'g'risida”. – Toshkent, 1999 yil 12 may.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni “Qatag'on qurbonlarini yod etish kunini belgilash to'g'risida”. – Toshkent, 2001 yil 1 may.
11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori “Vatan va xalq ozodligi yo'lida qurbon bo'lgan fidoyilar xotirasini abadiylashtirish to'g'risida”. – Toshkent, 1999 yil, 22 iyul.
12. Shamsutdinov R.T. O'zbekistonda sovetlarning quloqlashtirish siyosati va uning fojeali oqibatlari. – T.:Sharq, 2001.
- 13.Shamsutdinov R.T. Istiqlool yo'lida shahid ketganlar. –T.: Sharq, 2001.
- 14.Shamsutdinov R.T. Qishloq fojeasi: jamoalashtirish, quloqlashtirish, surgun (O'rta Osiyo respublikalari misolida). –T.: Sharq, 2003.
- 15.Shamsutdinov R.T., Mamajonov A. Shimoliy Kavkaz surgunidagi yurtdoshlar qismati. –T.: Sharq, 2005.
16. Repressiya: 1937-1938 годы. Документы и материалы. Выпуск №1. Sost: Shamsutdinov R.T., Karimov N.F., Yusupov E.Yu. otv. red. N.F.Karimov. – T.: Shark, 2005, - 285 s.
17. Shamsutdinov R. va boshqalar. Tarixning hasratli sahifalari. –T.: Sharq, 2006.
18. R.T.Shamsutdinov, B.Rasulov. Tragediya sredneaziatskogo kishlaka: kollektivizatsiya, raskulachivaniya, ssylka. 1929-1955gg. Документы и материалы. Том I-III. –T.: Shark, 2006.
19. Shamsutdinov R.T. Katta terror aybdorlari haqida yangicha talqinlar. - Andijon, 2007.
20. Shamsutdinov Rustambek. Qatag'on qurbonlari. (1937 yil 10 avgust-5noyabr). Ikkinchi kitob. –T.: Shark, 2007.
21. Vatanimiz o'tmishidan. -Andijon, 2007.
22. “Repressiya” 1937-38gg. Документы и материалы. Выпуск 3. Жертвы Бол'шого террора из Узбекистана. 1937 год, ноябр. Sost: Shamsutdinov R.T., Yusupov E, Mamajonov A, Do'smatov E. – T.: Sharq, 2007.
23. Repressiya 1937-38gg. Документы и материалы. Выпуск 4. Жертвы Бол'шого террора из Узбекистана. 1937 год, декабр. Sost: Shamsutdinov R.T., Abdullaev M., Do'smatov E.P., Kurbanov X.R. –T.: Sharq, 2008.
24. Andijon tarixidan lavhalar. – Andijon, 2008.
25. Qatag'on qurbonlari. 1938 yil fevral, sentabr. Beshinchi kitob. Tuzuvchilar: Shamsutdinov R., Qurbonov X., Rasulov J., Egamberdiev F., Bekimmetov U. T.: Sharq, 2009.
26. Shamsutdinov R., Akbarova M. Shimoliy Qozog'ison surgunidagi yurtdoshlar qismati. T.: Sharq, 2009.
27. S.Jalilov. Izboskan va izboskanliklar. Toshkent -“Vktor press”- 2007.
27. www.uzmeros.uz “Meros” xalqaro ilmiy-amaliy ekspeditsiya xayriya jamg'armasi fondi kitoblaridan. malakaviy ishimning mazmuni, amaliy ahamiyatiga ham ijobiy ta'sir qildi.